


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAHSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT
UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
“MUSIQA VA UNI O'QITISH METODIQASI” KAFEDRASI**

XAKIMOV YODGOR QO'CHQARBEEK O'G'li

**« Umumta'lim maktablarida sinfdan tashkari musiqiy
to'garaklarda o'quvchilarni fasl bayramlariga tayyorlash
metodlari » mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI



Ilmiy raxbar:

O.Karimova

Andijon 2013

MAVZU: Umumta'lim maktablarida sinfdan tashkari musiqiy to'garaklarda o'quvchilarni fasl bayramlariga tayyorlash metodlari.

Reja;

Kirish

Bob I. Musiqaviy – estetik tarbiyaning psixologik asoslari.

1.1. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi

1.2 To'garak tashkil etishda o'quvchilar oilasi bilan o'zaro aloqa.

Bob.11. Umumta'lim maktablarida musiqiy to'garaklarni tashkil etish metodlari.

2.1. Xonandalik to'garagi rahbarining tashkilotchilik va uslubiy etukligi

2.2. Xor to'garagi tashkil etish va uning ahamiyati

Xulosa

Ilova

Foydalanilgan adabiyotlar.

Mundarija.

KIRISH.

« Mustaqillik qo`lga kiritilgach, o`z davlatchiligimizni shakllantirishda madaniyatimiz sarchashmalariga, hali chuqur o`rganishni taqozo etuvchi ulkan ma`naviy merosimizga murojaat qilish, bag`oyat boy tarixiy o`tmishimizda mavjud bo`lgan barcha ezguliklarni yuzaga chiqarib, rivojlantirish borasida tarixiy imkoniyatlar ochildi .»

Islom Karimov .

O`zbekistonda demokratik, huquqiy davlatning bosqichma-bosqich qurilishi o`sib kelayotgan yosh avlodga milliy an`analar va xalqimiz xususiyatiga xos bo`lgan yangi rivojlanish yo`llarini ochib bermoqda .

Bugungi davrimiz, milliy qadriyatlarimizning qayta tiklanish jarayoni madaniy merosimizni, shu jumladan, ko`p asrlar davomida shakllangan badiiy merosimizni, an`analarimizni har tomonlama o`rganishni taqozo etmoqda. Xalqimizning bebaho ma`naviy mulki bo`lgan milliy kuy-qo`shiqlarimiz muhim va qimmatli manbalardan biridir .

Ularni keng miqyosda tadqiq etish masalasi hozirgi vaqtda alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, qo`shiqchiligimiz san`atining buyuk ijodkori tarixini har tomonlama o`rganish va bu borada chuqur izlanishlar qilib xalqimizga yetkazish uchun keng imkoniyatlar ochildi.

**Mavzuni ob`ekti** Umumta`lim maktablarida tashkil kblbnadigan to`garaklar.

Mavzuni maqsadi va vazifasi Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, o`quvchilarni, iloji boricha, ko`proq ommaviy va to`garak ishlariga jalb etib, ularni Dunyo-qarashini har tamonlama rivojlantirish, badiiy didini o`stirish, tabiatga, ona Vatanga bo`lgan mehr- muhabbatni oshirishidir.

Mavzuni dolzarbligi. Bolalar musiqaviy o`zlashtirish darajasini aniqlash usuliga aloxida e`tibor berish . Dars va sinfdan tashqari musiqaviy mashg`ulotlardagi ta`lim-tarbiya jarayonida ma`lum va ta`sirchan ko`rsatgich belgilarini aniqlash zarurati tug`iladi .

Musiqqa san'ati turi barcha davr daholari e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan. Arastu « Musiqqa ko'ngilga axloqan muayyan ta'sir ko'rsatuvchi quvvatga ega. Musiqqa shunday xislatga ega ekan , u yoshlarni tarbiyalash vositalari qatoriga qo'shilmog'i lozim »,-deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat, insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda musiqqa tengsiz ahamiyat kasb etadi. Musiqqa san'ati Sharqning buyuk allomalari Beruniy , Forobiy , Ibn Sinolarni ham qiziqtirib kelgan. Bu haqda ular maxsus asarlar ham bitganlar. Masalan, Ibn Sinoning « Al-muddohil ila san'atal musiqiy » asari fikrimizning dalilidir .U mazkur asarda shunday yozadi : « Musiqqa hayotbaxsh olijanob axloqiy xususiyatlarni rivojlantiradi, u insonga xizmat qiladi . Uning ruhiy va axloqiy qiyofasini shakllantiradi ». Olimning musiqaning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi qarashlari Arastu fikrlari bilan hamohangdir. Bundan tashqari, Ibn sino o'zining tibbiyotga oid « Kitob an-Najot », « Kitob ash-Shifo » , « Donishnoma » kabi asrlarida ham musiqqa nazariyasi va amaliyoti xususida nodir fikrlarni bayon etib qoldirgan .

O'rta Osiyo olimlari Forobiy , Ibn Sino, Najmiddin Kavkabiy , Darveshali Changiy kabi allomalarning musiqqa haqidagi kitoblari dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va musiqqa ilmi rivoji uchun hozir ham xizmat qilib kelmoqda .

Sharq va G'arb tillaridagi ko'pgina manbalarda Farobiyning musiqqa nazariyasiga bag'ishlangan qomusiy xarakterdagi « Kitob al musiqiy al kabir » (« Buyuk musiqqa kitobi ») yaratilganligi va bu kitob so'nggi davrlargacha O'rta va Yaqin Sharqda musiqqa nazariyasi va san'atining rivojlanishida muhim qo'llanma bo'lib xizmat qilganligi aytilgan.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zining « Halol yashash va halol mehnat qilish –burchimiz » asarida « Inson shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatini kamol toptirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish , yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash oldimizga muhim vazifalarni qo'ymoqda »-deb uqtirib, yosh avlodni shaxs sifatida kamol toptirish sohasida amalga oshiriladigan ishlarni yanada aniq belgilab berdi.

Islom Karimov o'zining « O'zbekiston buyuk kelajak sari » asarida istiqlol mafkurasi « Xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari , urf-odatlar, tili va ruhi negiziga qurilgan »ini qayd qilib ,milliy mustaqillik mafkurasi umuminsoniy qadriyatlar bilan mahkam uyg'unlashgan holda kelajakka ishonch tuyg'usini odamlar qalbi va ongiga yetkazishi, ularni Vatanga muhabbat , insonparvarlik ruhida tarbiyalashi , halollikni , mardlik va sabr-bardoshlilikni , adolat tuyg'usini, bilim va ma'rifatga intilishni tarbiyalash yo'lida xizmat qilmog'i lozim ekanligini, davlat fuqarolarning buyuk maqsad yo'lida ma'naviy yaqinlashuviga ko'maklashmog'i kerakligini ta'kidladi .

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish jarayonida maktab ta'limi, ayniqsa, umumta'lim maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga e'tibor kuchaytirildi .Shu maqsadda yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uzviy va mantiqiy davomi bo'lmish 2004-2009-yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi qabul qilindi .

Ushbu dasturga muvofiq, yurtimizda mavjud bo'lgan o'n mingga yaqin umumta'lim maktabining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash , ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish , o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda .

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz , albatta bu maqsadga musiqa san'atisiz erishib bo'lmaydi .Xalqimiz hayotida musiqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi.

Mustaqillik yillarida , ulug' bobolarimizning ana shunday an'alarini davom ettirgan holda , mamlakatimizda musiqa san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda .

Jumladan , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 20-oktyabrda chiqargan : »O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi Farmoni musiqa san'atini yanada rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 7-yanvardagi « Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va

ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014-yillarga mo'ljallangan davlat dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida »gi farmonida maktab ta'limi , ayniqsa , badiiy ta'lim mazmunini oshirish borasida yangi yo'nalishlarni ochib berdi . Zero, bu Farmonda ta'lim va tarbiya masalalari bilan bir qatorda « san'at maktablarini malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash , soha uchun o'qituvchilarni tayyorlash »...asosiy vazifalardan biri sifatida e'tirof etilgan .

Davlat ta'lim standartiga muvofiq o'quvchilarni milliy musiqiy qadriyatlarimiz bilan tanishtirib borish , musiqa san'atining durdonalari, O'zbekiston bastakor va kompozitorlarining asarlari namunalari orqali milliy hamda jahon musiqalariga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish ham ko'zda tutilgan.

Yosh avlodning kamolotida barcha omillar qatori qo'shiq kuylash , raqs , folklor ansamblini tuzish , bir so'z bilan aytganda musiqiy to'garaklar faoliyati ham muhim ahamiyatga ega .

Kuy-qo'shiq inson ruhiyatiga ta'sir etib , u insonni faqat yaxshi sifatlarga chorlaydi . Bu haqda Ibn Sino shunday deydi :

« San'at –mo'jizadir » .Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirib borishi mumkin .

Barchamizga ayonki , kuy-qo'shiqqa , san'atga muhabbat , musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab , oila sharoitida shakllanadi .

Maktabgacha ta'lim muassasalarida , umumta'lim maktablarining « musiqa madaniyati »darslari hamda musiqa to'garaklari faoliyatida , musiqa va san'at maktablari faoliyatlarida mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi , bu fanga ikkinchi darajali qaramaslik , o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib qiziqarli mashg'ulotlar jarayonini tashkil etish , zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish , milliy , an'anaviy , klassik , zamonaviy , estrada kuy-qo'shiqlardan, raqslardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. »

I bob. Musiqaviy – estetik tarbiyaning psixologik asoslari.

Estetik tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda uning psixologik asoslarini o`rganish muhim ahamiyatga ega. Xar qanday tarbiya singari estetik tarbiyaning ham psixologik mohiyatini atroflicha yoritish ancha murakkab ishdir.

Musiqqa san'atining muxim xususiyatlaridan biri shundaki, unda xaykaltaroshlik va rassomchilikka xos bo`lgan predmet tasviri yoki proza va poeziyaga xos konkretlik mavjud emas. Musiqada insonning turli xis-tuyg`ulari, kechinmalari ifoda etiladi. Xursandchilik quvonchlilik va qiziqarli vaziyat bolalar idrokini o`tkirlashtiradi, dars materiallarini tez va puxta o`zlashtirib olishlariga yordam beradi. O`quvchilarda yaxshi kayfiyat tug`dirish darsni mazmunan rang-barang, qiziqarli tashkil qilish shu bilan birga bolalarning yosh individual xususiyatlarini nazarda tutib borishga ko`p jixatdan bog`liqdir. Puxta tayyorgarlik bilan mazmunan rang-barang va jozibali tashkil qilingan dars pedagogik va badiiy maxorat bilan olib borilsa, o`quvchilarning kayfiyatlari doimo xushchaqchaq bo`ladi.

Bolalar hissiyotining o`ziga xos xususiyatlaridan biri uning muayyan sharoit bilan bog`liqligidir. Ya'ni bolalarda sodir bo`ladigan xissiy kechinma ma'lum bir konkret sharoitda keladi. Shunga ko`ra bolalarni qiziqtiradigan, o`ziga jalb etadigan, zavqlantiradigan sharoit va vaziyatni yaratish ularda estetik xissiyotni o`stirishning eng zarur shartidir. Odatda bolalar o`zlarida paydo bo`layotgan oddiy va estetik xissiyotlarni anglamaydilar. Vaholanki, bolalardagi xissiy xayajon o`zlariga tanish bo`lgan kuy va qo`shiqni bevosita o`zlari ijro etganlarida sodir bo`ladi.

O`quvchilarda sodir bo`layotgan xis-xayajonlarning ongli bo`la borishiga xarakat qilish, o`quvchilarni mustaqil fikr yuritishga, baholashga o`rgatish va buning uchun barcha mavjud imkoniyatlardan to`la foydalanish asosiy vazifalardan biridir. Masalan o`qituvchi o`quvchilarni ma'lum bir qo`shiq bilan tanishtirishi va ularga o`rgatishida:

-bu qo`shiqni birinchi marta qaerda eshitgansiz?

-bu qo`shiq sizga nima uchun yoqib qoldi?

-qo`shiqni qanday ijro etish kerak?

-qo`shiqni so`zlari musiqa oxangiga mos keladimi?

-qo`shiqni yaxshi ijro etish uchun nimalarga e'tibor berish kerak? -kabi savollar orqali o`quvchilarni yanada diqqat bilan tinglashga, ularni o`zlari e'tibor bermagan ayrim narsalarni payqab olishiga mustaqil fikr yuritish va ma'lum darajada baholashga odatlantirib boradi.

Biz «go`zallik» deganimizda narsa va xodisalarning shakl va mazmun birligini va butunligini tushunamiz, o`z-o`zidan ma'lumki, kichik yoshdagi o`quvchilar o`zlari idrok etayotgan narsalarni baxolashda go`zallik mezonidan foydalana olmaydilar. Ayni bir vaqtda ular uchun «go`zal» so`zi va tushunchasiga nisbatan «chiroyli» so`zi va tushunchasi xayotiyligi bilan yaqin va tushinarlidir. Bolalarning kundalik xayotida «chiroyli bola», «chiroyli qiz». «chiroyli kuylak», «chiroyli daftar», «chiroyli yozuv» kabi so`zlar doimo uchraydi. Estetika bilan shug`ullanuvchi olimlarning fikricha, «chiroyli» so`zi «go`zal» so`ziga nisbatan bir muncha oddiy tushuncha bo`lib, u narsa va xodisalarning ko`proq tashqi ko`rinishi va tashqi xususiyatlarini ifodalaydi. Shunga ko`ra, xar qanday tarbiya singari estetik xissiyot tarbiyasi xam boshlang`ich sinflardan to`g`ri va mustaxkam yo`lga qo`yilsa, bolalarda estetik xissiyotning asta-sekin o`sishi va shakllanishi uchun etarli zamin yaratilgan bo`ladi.

Ma'lumi, estetik hissiyot o`z tabiatiga ko`ra aktiv yoki passiv xarakterda bo`lishi mumkin. O`quvchilar biror musiqa asarini tinglar ekanlar, shu asarga nisbatan o`z munosabatlarini bildirib boshlaydilar. O`quvchilar asta-sekin musiqa va qo`shiqlari rang-barang ovozlarni barcha ifoda vositalarini, xarakter va kayfiyatlarini farqlay oladigan, o`rganilayotgan ashulalarni chiroyli, xush ohang, xissiy-emotsional ijro etadigan bo`la boradilar. Bu esa kichik yoshdagi o`quvchilarda estetik xissiyot, estetik idrok bilan bir qatorda badiiy didni xam o`sayotganligidan dalolat beradi. O`quvchilarda estetik idrokning o`sishi va shakllanib borishida estetika miqyosidagi barcha darslarning bu borada amalga oshirilishi mumkin bo`lgan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining qay darajada yo`lga qo`yilganligi xamda barcha o`quvchilarning yashash sharoitlari. oiladagi

muxiti, ota-onalarning bu ishga boʻlgan munosabatda ekanligi xam gʻoyat muhim rol oʻynaydi.

Kishi u yoki bu narsani idrok etar ekan, idrok etilayotgan narsaga nisbatan insonning sezgi organlaridan birortasi asosiy oʻrin tutadi. Rasmni idrok etganimizda koʻrish organi, musiqani eshitishda esa eshitish organi bosh oʻrinda turadi. Bulardan tashqari idrokning yana aralash turi xam borki, maʼlum bir narsani idrok etishda bir emas. ikki va uch sezgi organlari asosiy oʻrin tutadi. Narsani bunday idrok etish aralash idrokka misol boʻla oladi.

Musiqaviy – estetik tarbiya boshlangich sinflarning asosiy predmetlaridan biri.

Musika san'ati — estetik tarbiyaning muxim omili boʻlib u garmonik rivojlangan shaxsning kamolotga etishishi uchun unga muhim ta'sir etuvchi jarayondir. Bogʻchada, oilada, boshlangʻich sinfda musika mashgʻulotlarini qoniqarli uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san'atni toʻgʻri tushunishdagi yagona yuldir.

Xoʻsh, musiqaning oʻzi nima, u qachon fan va qachon san'at hisoblanadi? Musika ayni bir vaqtning oʻzida xam fan, xam san'atdir. U fizika va matematikaga asoslanadi bu fanlar musiqani fanga aylantiradi: ammo musika fan chiqargan xulosalardan oʻz holicha foydalanadigan, ilhom tufayli san'atga aylandi. Musika kishilar extiyojini qondirib borar ekan, ularning ongini shakllantirishga koʻmaklashadi, xis-tuygʻularini boyitadi, shaxsdagi sotsial xususiyatlarni tarbiyalashga katta yordam beradi. «Bolalikda erisholmagan narsaga kamolot yoshida erishish qiyin», - deb aytgan edi atoqli pedagog V. A. Suxomlinskiy. Bu soʻzlarning xayotiyiligini tarbiya fani, hayotning oʻzi musika va san'at fanidan yiroq boʻlgan ba'zi katta yoshli shaxslar tasdiqlab turibdi katta yoshli kishining xayoti, uning atrofdagi voqelikka munosabati koʻp jixatdan bolalikda olgan tarbiyaga borib taqaladi. Umumta'lim va xunar maktabini islox qilishnnng asosiy yoʻnalishlari»da shunday qayd etilgan: «Nafosat xis-tuygʻusini rivojlantirish, yuksak estetik didni shakllantirish, san'at asarlariga baho berish mahoratini shakllantirish kerak. Ana shu maksadda xar bir oʻquv predmetining ayniqsa

adabiyot, musiqa tasviriy san'at estetikaning imkoniyatlaridan ularning katta bilim va tarbiya berish kuchidan yaxshiroq foydalanish kerak». Shunday ekan.

o`quvchilarning musiqa tarbiyasi soxasida maktablar ma'muriyati sistemasini psixologik jixatdan qayta qurish taqozo qilinadi Ashula va musiqa o`quv tarbiya jarayonida asosiy predmetlar qatoridan joy olishi kerak.

Umumta'lim maktabidagi musiqa ta'limi va tarbiyasining muvoffaqiyati boshlang`ich sinflardan boshlab musiqa darslarining qay darajada uyushtirilganligi va tashkil etilganligiga bog`liqdir. Bunda, ayniqsa o`qituvchi o`quvchilarga nisbatan estetik zavq uyg`ota bilishi kerak. Bu uchun avvalo o`qituvchining o`zi musiqa ma'lumotiga ega bo`lishi va quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi kerak:

-bolalarning musiqaga nisbatan ijobiy munosabatini tarbiyalash;

-qo`shiq kuylash va eshitishga o`rgatish:

-darsning xar bir bo`lagini, musiqa xaqidagi xar bir ma'lumotini kichik yoshdagi o`quvchilar quvnoqlik va qiziqish bilan qabul qilishlariga erishish.

Umumtarbiya ishiga kompleks yondashish o`rta maktabning barcha pedagoglari, shu jumladan musiqa o`qituvchilarining shaxsning garmonik rivojlanishiga qo`shayotgan o`z xissalari bilan asoslanadi.

Musiqaviy tarbiya, bolalar musiqaviy qobiliyatining rivojlanishida maktab o`quvchilari estetik tarbiyasining qismidir.

Musiqaviy estetik tarbiya masalalari bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Vaholanki, bola shaxsining shakllanishi jarayonida uning estetik madaniyat asosidagi xar tomonlama badiiy rivojlanishi o`qituvchidan jiddiy mas'uliyatni talab qiladi. Chunki boshlang`ich sinfdagi musiqa tarbiyasi bolaning mexnatga, Vatanga va burchga bo`lgan muxabbatini shakllantiradi. tarbiyalaydi, xamda uning butun xayoti mobaynida unga xamrox bo`lib boradi.

Musiqa darslari maktabdagi boshqa darslardan o`zining xis- xayajonliligi bilan farqlanadi. Umumta'lim miqyosidagi barcha predmetlarni o`rganishda ma'lum bir tushunchalarni konkret, yagona yo`llar bilan aniqlash imkoniyati bo`ladi. Lekin musiqa asariga aniq, ma'lum bir shu fanning turg`un tushunchasi deb, qarab bo`lmaydi. Chunki musiqa asari abstrakt bir narsa bo`lmay, u xar doim rivojlanib

boruvchi jonli sanatdir. Musiqa fani maktabda boshqa fanlarni o`zlashtirishga ham bevosita ta'sir ko`rsatadi. Ya'ni musiqashunoslik asosida o`quvchining ruhi kayfiyati ko`tarilgan bo`lsa, bu uning umuman bilim olishiga samarali ta'sir kursatishi tabiiydir. Musiqa fani o`quvchilar ma'naviy dunyosini kengaytirishda ham muhim omillardan hisoblanadi. Insonning ma'naviy dunyosi qanchalik keng bo`lsa, u jamiyat taraqqiyotiga salmoqli ta'sir ko`rsatadi.

Umumta'lim maktabining asosiy vazifalaridan biri o`quvchilarni fikrlash va o`ylashga o`rgatishdir. Bu vazifani amalga oshirishda musiqa darsi muhim ahamiyatga egadir. Bunda o`qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtirib uni ijro etadi. Bolalar asarni tinglab, fikr yuritadilar, bu bilan o`qituvchi ularning emotsional his-tuyg`ulariga ham ta'sir etadi.

Ma'lumki, insondagi musiqaviy xazinalar yosh bolalarning ichki dunyosiga singib borishi asosan boshlangich maktabdan boshlanadi. Musiqa darslarining mazmunida faqat ma'lum bir musiqa materiali emas, o`quvchilar ongining voqelikka munosabatini rivojlanishi estetik va xulq madaniyatining rivojlanishi va boshqa ichki his-tuyg`ularining shakllanishidagi o`zgarishlar nazarda tutiladi. Maktab ta'limi sistemasida boshlang`ich ta'lim muhim o`rin egallaydi. Hozirgi kunda boshlang`ich maktabning ahamiyati yuqori ta'limning oldingi bosqichi sifatida muhimroq masalaga aylanmoqda, shuning uchun har bir fanning alohida o`qitilishi ahamiyati va roli oshib bormoqda. Shu jumladan o`quvchilar estetik tarbiyasining xarakter timsoli bo`lmish «musiqa va ashula» fani ham bundan istisno emas.

O`quvchilarning musiqaviy estetik tarbiyasida musiqa darslarining ijodiy tarzda olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi. O`qituvchining darsga ijodiy yondashishi bir qancha foydali maslaxatlarni o`z oldiga qo`yadi. Bular:

- musiqa tarbiyasida yangi usul va vositalar izlash
- hayot va san'at o`rtasidagi uzviy bog`liqlikni ifodalash
- musiqa san'atining mazmuni va ma'nosini tushuntirish maqsadida aniq fakt va misollarni ishlatish va hokazo.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda o`qituvchi jiddiy tayyorgarlik ko`rishi, o`z ustida tinmay ishlashi, ya'ni bilim saviyasi madaniyatini oshirish yo`llarini takomillashtirib borishi zarur.

1.1. Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, tarbiyaning asosiy maqsadi, o'quvchilarni, iloji boricha, ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jalb etib, ularni Dunyo-qarashini har tamonlama rivojlantirish, badiiy didini o'stirish, tabiatga, ona Vatanga bo'lgan mehr- muhabbatni oshirishidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to'garak ishlari olib boriladi. sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud :

1. musiqa tarbiyasining ommaviy shakli;
2. musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay. Yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, musiqa xaftaligi, O'zbekiston Vatanim manim, Ilxom chashmalari ko'rik tanlovlaridan. Ijodiy uchrashuvlar, teatr va kontsertlariga sayohat, Alifbe bayramlari, shoir va bastakorlar Bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashriya etib amalga oshirish, chinakam badiiy- musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim. Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab tarbiyaviy va ma'naviy ishlari mudiri, maktab etakchisi bilan hamkorlikda o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja, asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi. To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati hohishi-istagi, qiziqishi, ovoziga qarab tanlab oladi va turli xil to'garaklar tuzadi. Haftasiga 2-3 bor to'garak guruhlar bilan

ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli qiziquvchan. Musiqa darslarida aktiv qatnashidigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi.

Hozirgi paytda nafosat tarbiyasining- maktabda tutgan urni juda kattadir. Jumladan musiqa san'atiga qizikmaydigan va undan zavqlanmaydigan hech bir odamni topmasak kerak.

Musiqa san'atining kishilik jamiyati taraqqiyotiga tutgan o'rni va uning ahamiyati juda katta ekan, bu jarayonning maktabdan boshlab shakllanishi hammaga ma'lum. Musiqiy—nafosat tarbiyasining o'zagi boshlang'ich sinflarda boshlanadi. Musiqiy— nafosat tarbiyasining asosi esa, musiqa darslari hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarida musiqiy to'garaklar tashkil etishning yo'llari va vazifalari .

Umumta'lim maktablari musiqa to'garaklari faoliyatlarini tashkil etishda to'garak rahbarining quyidagi vazifalardan kelib chiqishi maqsadga muvofiqdir :

1. sinfdan tashqari tashkil etiladigan musiqiy ishlarda o'quvchilarni ahloqiy-estetik tarbiyalash , ularning musiqiy ishtiyoqlarini va qiziqishlarini o'rganish ;
2. O'quvchilarning musiqiy-badiiy qobiliyatlarini va ijodiy kamolotlarini shakllantiruvchi uslub va yo'llarini belgilash ;
3. O'quvchilarga musiqa madaniyatini targ'ib qilish va ularning qiziqqan faoliyat turlarini aniqlash ;
4. Musiqa o'qituvchisining kasbiga mehr va muhabbat uyg'otuvchi metodik tavsiyalar hamda tadbirlar ishlab chiqish va boshqalar .

Shu bilan birga to'garak rahbari o'z pedagogik faoliyatini yuqqori kasbiy darajada tashkil etishi va uni boshqarishi , musiqiy tarbiyaviy ishlarni olib borishida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan maqsad ,vosita , ob'ekt, sub'ekt kabi pedagogik faoliyatning tarkibiy qismiga tayanishi kerak . Bunda u

insoniylik , kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyati , texnologiyasi , pedagogik vaziyat va vazifalarni maqsadga yo`naltira olishi mahoratiga ega bo`lishi zarur .

D. B. Kabalevskiy ta`riflaganidek, mashhur pedagog Suxomlinskiyning ,« musiqi tarbiyasi bu musiqachini tarbiyalash emas, balki , insonni tarbiyalashdir , »- degan fikriga to`la amal qilish kerak .

Shuning uchun ham darsda va sinfdan tashqari mashg`ulotlarda musiqiy faoliyatning har bir uslubi maqsadli bo`lishi va maktabda musiqi tarbiyasi oldiga qo`yilgan vazifalarni butunicha bajarishi kerak .

O`quvchilar musiqiy o`zlashtirishlarining shakllanishi ko`p qirrali ko`rinish kasb etadi . Bunda musiqani o`zlashtirish qobiliyati rivojlanganlik darajasini pedagogik tushuntirib berishning uchta asosiy parametrini ko`rsatish mumkin . Bular :

1. Musiqi san`ati va musiqi mashg`ulotiga bo`lgan xisssiyotiga to`liq munosabatlar shakllanishining o`zgarishi ;
2. Musiqaviy qobiliyatlarni rivojlantirish darajasi va unga tegishli bilim , malaka va ko`nikmalarning shakllanishi ;
3. Har-xil musiqaviy faoliyat turlarida bolalar ijodiy faolligining xarakteri .

Bolaning estetik tarbiyalanganligi , faqat bilish , xis qilish va mustaqil ijodiy faoliyatlar birligida namoyon bo`ladi .

To`g`arak ishlarining alohida kundalik rejasi va o`quvchilarning faoliyati , ularni musiqi ijodiyotining eng yaxshi namunalari bilan rejali ravishda tanishtirishga imkon beradi . Musiqi tarbiya vositasi sifatida guruhning deyarli hamma mashg`ulotlarida foydalanish mumkin . Ekskursiya va sayrlarda esa ba`zi texnik vositalardan foydalanish mumkin ;

-jismoniy mehnat jarayonini ham musiqi jo`rligida olib borish mumkin ;

-turli sport-sog`lomlashtirish mashg`ulotlarini musiqi sadolari ostida olib borish mumkin ;

-turli mashg`ulotlarda esa har –xil musiqaviy o`yinlar tashkil etish mumkin .

Mohir tarbiyachi esa mashg`ulotlar orasidagi pauzalar vaqtida musiqadan unumli foydalanishlari mumkin .To`garak rahbarlarining harakatlari tufayli to`garak qatnashchilarining musiqaviy badiiy-estetik faoliyatlari hafta davomida o`tkaziladi va markaziy o`rinni maxsus musiqa mashg`ulotlari egallaydi .

Bolalar ijodiy faoliyati (qo`shiq aytish , oddiy musiqa asboblari ijro etish, ohangga mos musiqaviy harakatlarni bajarish ) ko`p mashg`ulotlarda zarur shart hisoblanadi . Ularni o`tkazishda bolalarning bevosita ishtiroki musiqaviy qiziqishlarini shakllantirishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi .

Musiqa mashg`uloti faqatgina musiqa , qo`shiq aytish , raqsga tushish kabi faoliyatlar bilan cheklanib qolmay , balki , turli xil harakatli faoliyatlarni ham o`z ichiga oluvchi faol dam olishning tashkiliy turidir . Lekin bu mashg`ulotlar avvalambor o`quvchilardan har tomonlama musiqaviy –estetik faoliyatni talab etadi . Bu mashg`ulotlar davomida bolalar musiqaviy – badiiy ijod bilan tanishadilar . Musiqa mashg`uloti yordami bilan darslar jarayonida hosil bo`lgan charchoqni bartaraf etish, bolalar o`quv qobiliyatini rivojlantirish , ular organizmining harakatga bo`lgan xissiy ehtiyojini qondirish zarur . To`garak mashg`ulotlari bolalarning musiqaviy-estetik tarbiyalash , ularga musiqa madaniyati va o`tgan avlod musiqaviy –estetik faoliyatining ijtimoiy-tarixiy tajribasi va milliy qadriyatlar elementar asosini bajarishni ko`zlaydi .

« Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi »

Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi, o`quvchilarni, iloji boricha, ko`proq ommaviy va to`garak ishlariga jalb etib, ularni Dunyo-qarashini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o`stirish, tabiatga, ona Vatanga bo`lgan mehr- muhabbatni oshirishidir. Mazkur maqsadni amalga oshirishda maktablarda musiqa darslaridan tashqari, ommaviy va to`garak ishlari olib boriladi.sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud :

1. musiqa tarbiyasining ommaviy shakli;

2. musiqa tarbiyasining to'garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasining ommaviy shaklida bolalarni musiqiy o'quvini tekshiruvdan o'tkazmay. Yalpi tarzda jalb etishni taqozo etadi. Bularga, qo'shiq bayramlari, musiqa xaftaligi, O'zbekiston Vatanim manim, Ilxom chashmalari ko'rik tanlovlaridan. Ijodiy uchrashuvlar, teatr va kontsertlariga sayohat, Alifbe bayramlari, shoir va bastakorlar Bilan uchrashuvlar kiradi. Ammo, bularning har biriga bolalarni yoshi qiziqishiga qarab, oldindan tayyorlab borilishi kerak. bu tadbirlarni har birini yuksak badiiy did bilan tashriya etib amalga oshirish, chinakam badiiy- musiqiy bayram ruhini kasb etish lozim. Musiqa o'qituvchisining ommaviy ishlar rejasi, maktab ma'muriyati tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim. Ommaviy musiqiy ishlar rejasi, musiqa o'qituvchisi va maktab tarbiyaviy va ma'naviy ishlari mudiri, maktab etakchisi bilan hamkorlikda o'quvchilarning yoshiga, qiziqishiga, bayramlar, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Bunda o'quvchilarning musiqiy o'quvi, qobiliyati hisobga olinadi. Ommaviy musiqa mashg'ulotlarining har biri, aniq ishlab chiqilgan reja, asosida amalga oshirilmog'i lozim. Bunda har bir mashg'ulot turiga qarab, uning asosiy maqsadi, xususiyati, repertuar mazmuni, maktab imkoniyatlari, taklif etilgan mehmonlar hisobga olinib, o'quvchilarni jalb etiladi. To'garak ishlarini esa, ish rejasini musiqa o'qituvchisining o'zi, o'z hohishi va imkoniyatlariga qarab, mustaqil tarzda tuzadi. O'qituvchi to'garak ishlariga o'quvchilarni musiqiy qobiliyati hohishi-istagi, qiziqishi, ovozigiga qarab tanlab oladi va turli xil to'garaklar to'zadi. Haftasiga 2-3 borto'garakki guruhlargsha bo'lib ishlaydi. To'garak ishlarining asosi musiqa darsidir. To'garak ishlariga qobiliyatli qiziquvchan. Musiqa darslarida aktiv qatnashidigan o'quvchilar tanlab olinadi. Darsda har bir bolaning layoqati qiziqishi hisobga olinib, u yoki bu musiqa to'garagiga jalb etiladi.

Hozirgi paytda nafosat tarbiyasining- maktabda tutgan urni juda kattadir. Jumladan musiqa san'atiga qizikmaydigan va undan zavqlanmaydigan hech bir odamni topmasak kerak.

Musiqqa san'atining kishilik jamiyati taraqqiyotiga tutgan o`rni va uning ahamiyati juda katta ekan, bu jarayonning maktabdan boshlab shakllanishi hammaga ma'lum. Musiqiy—nafosat tarbiyasining o`zagi boshlang`ich sinflarda boshlanadi. Musiqiy— nafosat tarbiyasining asosi esa, musiqqa darslari hisoblanadi.

1.2. To`garak tashkil etishda o`quvchilar oilasi bilan o`zaro aloqa.

To`garak o`quvchilarining musiqaviy –estetik tarbiyasida oilaning o`rni juda muhimdir . Chunki , o`quvchilarning ma`naviy ehtiyojlarini , san`atga bo`lgan qiziqish va ijodiy munosabatlarini , badiiy faoliyatga ishtiyoqlarini hamda madaniy ko`nikmalarini shakllantirishda ko`p narsa ota-onalarning san`at haqidagi tushunchalari va unga nisbatan bo`lgan munosabatlariga bog`liqdir . To`garak faoliyatlari mashg`ulotlarini tashkil etishda « musiqa – bolalar - ota-onalar » muammosi o`tkir namoyon bo`ladi .

Oilada musiqa tinglash , konsertlarga , musiqali teatrlarga borish , musiqa va musiqachilar haqidagi adabiyotlarni o`qish kabi bolalar bilan ishlash usullari , o`quvchilar musiqaviy faoliyatida ota-onalarning bevosita ishtirok etishi nazarda tutiladi .

Shuning uchun to`garak rahbari eng avvalo har bir o`quvchi oilasining ma`naviy muhitini va madaniy darajasini o`rganishi , ota-onalar, oiladagi katta yoshli kishilarning musiqa san`atiga bo`lgan qiziqishlarini va ularni o`z farzandlarining musiqa mashg`ulotlariga bo`lgan munosabatlarini aniqlash zarur . Shu maqsadda to`garak rahbari o`quvchilarning ota-onalari uchun ma`lumot olish varaqasi (anketa) tayyorlashi va bu varaqaga ularning musiqa san`ati sohasidagi bilimlariga, badiiy asarlarni tushunish darajasi va musiqaning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati , musiqa darsi va sinfdan tashqari musiqa mashg`ulotlariga munosabati , o`z farzandlari bilan birga necha marotaba teatr va konsert zallariga borganliklari , ularni musiqaviy fonateka mazmuniga , radio eshittirishlarni tinglash , teleko`rsatuvlarni tomosha qilishlariga doir va boshqa shu kabi savollarni kiritish mumkin .

Bunday ma`lumotlar har bir aniq xollarda ota-onalari bilan yakka tartibda olib boriladigan metodik ishlarni biror maqsadga qaratilganligi haqida va shuningdek , oilaning o`quvchilar musiqaviy tarbiyasini tashkil etishdagi mavjud sharoit va yordami haqidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi .

O`quv-tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlaridan biri o`quvchilar musiqaviy o`zlashtirishining ilmiy asoslangan belgilarini aniqlash

hisoblanadi . Keyingi yillarda pedagogik adabiyotlarda bolalar musiqaviy o`zlashtirish darajasini aniqlash usuliga aloxida e`tibor berildi . Shu tufayli dars va sinfdan tashqari musiqaviy mashg`ulotlardagi ta`lim-tarbiya jarayonida ma`lum va ta`sirchan ko`rsatgich belgilarini aniqlash zarurati tug`iladi . Musiqa to`garagi mashg`ulotining samaradorligini oshirish ko`rsatgichlarini aniqlash pedagogika fanining ilg`or usullaridan bo`lib , o`quvchilarning ahloqiy-estetik sifatlarini , ahloqiy-hissiy bilimlarini o`rganish hamda musiqaviy-badiiy faoliyatining hamohang xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi . Bu usullardan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilish kerak :

1. O`quvchilar tayyorgarligining barcha belgilari , haqiqiy bilimlari , maxsus malakalari , bilish faoliyatlari haqida ma`lumotlar olish ;
2. Har bir usulda beriladigan ma`lumotlarning doimiyligini ta`minlash ;
3. Tayyorgarlikning u yoki bu jihatlari haqida ishonchli ma`lumotlar beruvchi usullarni qo`llash va boshqalar .

Aniqlash usullari yordamida o`quvchining oilaviy-madaniy-ma`rifiy sharoiti , yodda saqlash qobiliyati , musiqani chuqur tushina olishi , uni taxlil qilish malakasi , ijobiy sifatlarga havas , nojoiz xatti-harakatlarga nafrat kabi ko`plab sifatlari aniqlab olinadi.

Ma`lumot olish varaqasi natijasidan kelib chiqib , tarbiyaviy maqsad , uni amalga oshirish uslub va yo`llari belgilanadi .

To`garak qatnashchilari oilasidagi katta yoshdagi kishilarning musiqa mashg`ulotlariga bo`lgan munosabatlarini aniqlash anketasi .

1-so'rovnoma .

1. Ota-onasining ismi ,familiyasi , kasbi .-----

2. Oila a'zolaringiz bilan birgalikda qaysi madaniy muassasaga ko'proq borasizlar ?-----

(kinoga ,teatrda , madaniyat uyiga , o'quvchilar ijodiy uyiga va hokazo)

3 . Bu madaniy muassasalardagi qaysi tomoshalar , musiqali chiqishlar sizga ko'proq yoqadi ?-----

(iltimos nomi va mazmunini yozib qo'ying .)

4. Ana shu asarlardagi qaysi qahramonlar , obraz , hodisa va voqealar sizga ko'proq ta'sir etgan ?-----

5. Ta'sir etgan va sizni o'ylantirgan obraz va voqealarni kimlar bilan muhokama etasiz ?-----

6. Bu voqea va qahramonlarning qaysi sifatlarini maqullaysiz ,qay birini qoralaysiz ?-----

7. Radio va televideniya orqali beriladigan qaysi eshittirish va ko'rsatuvlar sizga ko'proq yoqadi ?-----

8. Maktab musiqa darsi , sinfdan tashqari musiqaviy-tarbiyaviy ishlar sizga yoqadimi ? (Ha , yo'q)

2-so'rovnoma

Umumta'lim maktabi to'garak qatnashchilarining musiqa san'atiga bo'lgan munosabati va rivojlanganlik darajasini o'rganish anketasi .

Ismi –familiyasi .-----

Yoshi ,maktabning nomi , tuman , shahar , sinfi. -----

1. Musiqa to`garagiga qatnashishni hohlaysizmi ( ha ,yo`q)

2. Siz qanday musiqa to`garagi mashg`ulotlari tashkil qilinishini
va qanday musiqa asarlarini o`rganishni hohlardingiz ?-----

3. Siz uchun musiqa janrining qaysi biri sevimli ?-----

a) bolalar qo`shiqlari (qo`shiq nomini ko`rsating)-----

b) O`zbek kompozitorlari asarlari-----

c) O`zbek xalq qo`shiqlari va kuylari -----

d) Boshqa xalqlar musiqa asarlari (qo`shiqlari)-----

e) Estrada musiqasi (qo`shiqlari)-----

(guruh ijrochilar ,asarning nomi)

j) simfoniya , opera , balet-----

Maktab bilan oilaning hamkorligidagi harakati ota-onalarini
musiqaviy-ma`rifiy yo`naltirishga va uy sharoitida bolalar musiqa tarbiyasini
tashkil etishga qaratilgan maxsus tushuntirish suhbatlarini o`tkazishni talab

qiladi . Musiqa asarlari bilan tanishtirish uchun tavsiya qilingan repertuarlar , musiqali ertaklar , O`zbek va boshqa xalqlar klassiklari , xalq ijodiyoti namunalari , turli magnit hamda disk yozuvlari , hafta davomida olinadigan ommaviy axborot vositalarida bo`ladigan qiziqarli musiqali ko`rsatuvlar va eshittirishlar ota-onalar uchun foydali axborot bo`lib xizmat qiladi .

To`garak rahbarining fonatekaga ega bo`lishi maqsadga muvofiqdir . Chunki , bu fonatekalardagi magnityozuvlar hamda disklar oila davrasida bolalar bilan ishlash maqsadlariga xizmat qiladi . Boshlang`ich sinf o`quvchilari uchun o`quv yili oxirida o`quvchilar va ota-onalar ishtirokida musiqa bayramini o`tkazish muhim ahamiyat kasb etadi . Ota-onalarga bolalarning musiqaga bo`lgan qiziqishlarini orttiruvchi bir qator uy topshiriqlarini taklif etishni maslahat berish mumkin . Masalan : tinglangan yangi musiqa asari haqidagi taasurotlarni hisobga olish uchun birgalikda kundalik joriy qilish . Birinchi sinfda bunday yozuvlarni ota-onalar yozib beradilar . Keyingi sinflarda bolalar mustaqil bajara boshlaydilar . O`qituvchi , to`garak rahbari bilan ota-onalarning birgalikdagi harakati musiqa tarbiyasi metodikasi yuzasidan oilada o`quvchilar badiiy idrok qilish madaniyatini shakllantirish va ularni qurshab turgan musiqaviy hayot voqealariga nisbatan xissey anglash munosabatlarini rivojlantirishga harakat qiladi .

O`quvchilarning bo`sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishda to`garaklarning tutgan o`rni .

Umumta`lim maktabi o`quvchilarining bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazish ayniqsa , uni musiqaviy mashg`ulot , o`yin , to`garak va ommaviy tarbiyaviy ishlarga jalb etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bunday musiqiy faoliyatlarda o`quvchilar turli musiqa asarlarini tinglaydilar , kuylaydilar , ularga hamohang ravishda xatti-harakatlarni bajaradilar . Bir so`z bilan aytganda , musiqa asarlarida bayon etiladigan voqea va hodisalarning mohiyatini rang-barang tovushlar orqali idrok qiladilar . Bu tarbiyaviy tadbirlar ta`sirida ularning musiqiy qobiliyatlari, ritmik tuyg`usi , tovushlarning serjilo harakatlarini his qilish , kuylash iqtidori, tahlil qilish malakasi va boshqa xususiyatlar shakllanib boradi .

O`quvchilarning bo`sh vaqti o`quv majburiyatlarini bajarib bo`lgandan keyingi, ya'ni , ularning tabiiy fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo`ladigan vaqt bo`lib , undan o`quvchilarning shaxsiy mayllariga qarab foydalanish maqsadga muvofiqdir .Uning mazmuni shaxsning umumiy intilishi va ma'naviy rivojlanishi bilan aniqlanadi . Bo`sh vaqtni to`g`ri tashkil etishda quyidagilarga e'tibor berish kerak bo`ladi :

- 1.Bolalarni bo`sh baqtdan ongli ravishda mustaqil foydalanishga o`rgatish ;
- 2.Ularning yoshiga xos bo`lgan ehtiyojlariga javob beruvchi turli xil qiziqishlarning shakllanishi va rivojlanishini` doimiy ravishda rag`barlantirib borish ;
- 3.O`quvchilar bo`sh vaqtini maqsadga muvofiq ravishda o`tkazish uchun zarur moddiy ba'za yaratish ;
4. Musiqa to`garaklarining tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarning ahloqiy-estetik sezgisi , musiqiy didi va ehtiyoji , bilim , ko`nikma va malakalarini , musiqaviy faoliyati , ijodiy qobiliyatlari kabi musiqaviy madaniyatini tarbiyalashdan iborat bo`lmog`i darkor .

Maktabda musiqa tarbiyasini tashkil etishda Davlat ta'lim standarti o`quv rejasi va dasturi asosida olib boriladigan musiqa darsi materiallari bilan kifoyalanib qolmaslik kerak . Chunki , sinfdan tashqari tashkil qilinadigan ishlar « musiqa madaniyati » darslarining davomi sifatida to`garak ishi mazmuni va maqsadi bilan uzviy bog`liq bo`lishi maqsadga muvofiqdir . O`quvchilarning musiqiy to`garak mashg`ulotlarida ishtirok etishi ixtiyoriy mazmun kasb etib , ularning :

- a) . O`zlari qiziqqan musiqa turi bilan mashg`ul bo`lishi ;
- b) . Mashg`ulot mavzusi va repertuarlariga taklif kiritish imtiyozi ;
- d) . Mashg`ulotlarning interfaol o`yin shaklida olib borilishi ;
- e) .Maktabdan tashqari ma'lum madaniy-ma'rifiy muassasalarga sayrga chiqishlari kabi ilkoniyatlar bu tarbiyaviy ishlarning o`ziga xos xususiyatlaridan biridir .

Izlanishlar shuni ko`rsatadiki , agar musiqa to`garagi mashg`ulotlari turli xil qiziqarli ko`rinishlarda (musiqiy-dramatik o`yinlar , bolalar shovqinli asboblari

orkestri , yosh musiqasevarlar klubi , musiqiy spektakllarni sahnalashtirish va boshqalar) olib borilsa, barcha o`quvchilar bajonidil bu to`garaklarda ishtirok etadilar . O`quvchilarning darsdan tashqari musiqiy faoliyatlarida turli tashkiliy usullarni qo`llash mumkin . Buning uchun esa quyidagi talablarga amal qilish zarur :

1. Dars va darsdan tashqari faoliyatlarni tashkil etishda milliy istiqlol g`oyasi, ahloqiy va estetik tarbiyaning o`zaro aloqasiga tayanishi , uni rejali va tartibli ravishda olib borishga atroflicha yondashish ;
2. Oila va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlash ;
3. Bolalar qiziqishlari va shaxsiy badiiy faoliyatlar tanlashning ixtiyoriyligiga asoslanish ;
4. Musiqqa tinglash , qo`shiq aytish , cholg`u asboblari chalish , musiqiy harakatlarni bajarish , musiqiy-dramatik o`yinlarga improvizatsiya qilish ;
5. Kompleks san`at turlari ta`sirining zarurligi va ularning bola shaxsiga birgalikdagi ta`siri va boshqalar .

To`garak rahbarining musiqiy tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda quyidagi sifatlarni o`zida mujassam etmog`i zarur :

1. Yuksak ma`naviyatli bo`lishi , san`atni chuqur bilishi , ovozini , kayfiyatini idora qila bilishi , adabiyot va san`at sohasidagi, siyosiy , ma`naviy bilimlarini muntazam boyitib borishi ;
2. To`garak mashg`ulotlarini tashkil eta bilishi (o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini , bilimlarining darajasini hisobga olishi ) , mashg`ulotlarda o`quvchilarning qiziqishi , talab , mayllarini aniqlashi va e`tiborga olishi ;
3. Mashg`ulot maqsadini to`g`ri tushuntira olishi , ko`rgazmali –tasviriy materiallardan , zamonaviy texnika vositalaridan mohirlik bilan foydalanishi ;
4. Mashg`ulotda egallagan bilim va ko`nikmalarni o`quvchilarning kuzatishlari, hayotiy tajribalari bilan bog`lay olishi ;

5. Mashg`ulotda o`tilgan mavzudan kutilgan ahloqiy –estetik maqsadni to`g`ri va aniq belgilash va ularni hal etish uchun turli vositalarni topa olishi va boshqalar .

O`quvchilarning bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazish va ularning ijtimoiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirish , ularning ruhiy kamolotini yuksaltirishda musiqiy mashg`ulotlarning , jumladan, ijodiy to`garaklar : xor, orkestr, folklor, estrada, raqs , xalq vokal ansambllari , musiqaviy suhbat , viktorina , maruza , munozara , yosh musiqasevarlar klubi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

II bob. Umumta'lim maktablarida musiqiy to'garaklarni tashkil etish metodlari.

Musiqqa ta'limini takomillashtirib, dars samaradorligini oshirish sinfdan tashqari musiqiy tadbirlarni turli xil mavzularda tashkillash o'quvchilarning yosh individual xususiyatlarini xisobga olgan holda mashgulotlarni to'qri tashkil etish davr talabidir. Ma'lumki bunday vazifalarni oqilona xal etish to'qri yo'lga qo'yish o'z-o'zidan bo'lmasligi tadqiqotlarimiz davomida ma'lum o'ldi. Bu qator tadbirlarni ishlab chiqish bilan birgalikda biz o'qituvchilardan ta'lim vositalaridan o'rinli foydalanish zarurligini, optimal metodlarni qo'llash, o'ziga xos izlanish, talabchanlik, tinimsiz mehnat, gayrat va shijoat ko'rsatishni talab etadi. Biz o'qituvchilarning ana shu yo'sinda olib borgan ta'lim-tarbiya ishlari o'z samarasini berib, o'quvchilarimizning tushunish qobiliyatlari o'sib, bilim va ko'nikmalari kamol topishga yordam bera boshladi.

Tadqiqotlarimiz davomida biz bajariladigan ishlar, kuylanadigan qo'shiqlar, ijro etiladigan raqs, sahna asarlarini qisqacha izohlab berishni lozim topdik. Bu usul o'quvchilarda o'tkaziladigan «Vatan ostonadan boshlanadi» nomli musiqiy tadbirimizga bo'lgan qiziqishlarini ortirishda yaxshi natijalar berdi.

O'tkaziladigan tadbirimizdan ko'zlangan maqsad faqatgina o'quvchilarni san'atga qiziqtirish va san'at bilan muloqatga jalb etish emas, balki ularda ijodiy qobiliyatni tarkib toptirish va musiqiy ko'nikmalarini shakllantirish, Vatanga sadoqat, xalqiga mexri-muruvatli bo'lish, davlat ramzlarining (bayroq, gerb, madxiya) mazmun va mohiyatini anglab olishlari davlat va jamoat mulkini ko'z qorachigiday asray bilishlarini o'rganishlari lozimligini uqtirib borishdan iboratdir.

Tadbirni tashkil etishda quydagilarga e'tibor qaratiladi. Buning uchun oldindan e'lon (ya'ni afishalar) yozib, e'lonlar doskasiga ilib qo'yiladi.

Tadbir stsenariysi yoziladi. Qo'shiqlar dasturi tuzib chiqiladi.

Kiyimlar tayyorlanadi hamda to'garak a'zolarini Ismi Familiyasi har bir nomer tagiga yozib qo'yiladi. Fan o'qituvchisi boshchiligida tadbir o'tkaziladigan zalda navbatchilikka turishadi. O'tkaziladigan tadbir repertuari uchun tanlangan asarlar o'z mazmuni jihatdan o'quvchilarga tushunarli va ularning yoshlarga mos

bo'lishiga ham e'tibor qaratiladi. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilarning ish qobiliyati o'rta yoshdagi o'quvchilarnikiga qaraganda zaifroq bo'lishni yodda tutgan xolda reja tuziladi. Quyida tanlangan asarlarimiz haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

«Mustaqil Vatanda» Sultan Akbarov musiqa. Rustam Ochilov she'ri.

«Diyor madxi» N. Norxo'jaev musiqasi. Xabib Rahmat she'ri.

«Istiqlolni kuylayman». Xabibillo Raximov musiqasi. X. Kayumov she'ri.

«Biz istiqbol egasimiz» Gafur Qodirov musiqasi. Po'lat Mo'min she'ri.

Repertuarlarimizda «Vatan», «Diyor madxi», «Istiqlol» kabi qo'shiqlarning borligi o'quvchilarimizni milliy istiqlol ruhida tarbiyalaydigan, ularda Vatanga sadoqat, xalqiga muqabbat, ustozlarga xurmatda bo'lish kabi xislarni uyqotishga yordam bermoqda. To'garak a'zolarimizning ijodiy ishga ishtiyoqining borligi tadbir davomida tayyorlangan saxna asarlari, musiqa asarlarini ko'tarinki ruq bilan namoyish etishlarini ko'rsatdi. Biz sinfdan tashqari ishlarning rejasini maktabning tarbiyaviy ish rejasi bilan boqlangan holda tuzishni ma'qul deb bildik. Rejamizda maktab bo'yicha qilinadigan ishlar, yil davomida o'tkaziladigan bayramlarga:

«Mustaqillik bayrami» 1 – sentyabp.

«Konstitutsiya kuni» 8-dekabp.

«Yangi yil kechasi» 30-31 dekabp.

«Navro'z bayrami» 20-21 mart.

«So'nggi qo'nqiroq» 24-25 may.

Bagishlangan kechalar, uchrashuvlar, mamlakatimiz miqyosida nishonlanadigan tarixiy sanalar hisobga olindai. Sinfdan tashqari ishlar rejasi tuzishda quyidagilarga qaratiladi.

Musiqa asarlarini tanlash va shu asarlar ustida mashgulotlar o'tkazish. Tanlangan asarlarni tayyorlab o'quvchilar bilan birgalikda ishlash. To'garak a'zolarining umumiy madaniyatini hamda fikr doirasini kengaytirish uchun:

a) «Biz Vatanni sevamiz».

b) «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» kabi mavzularda suqbatlar o'tkazish. Rejani tuzishda to'garak mashg'ulotlari bilan bir qatorda maktabning jamoatchilik ishlarida aktiv qatnashgan, tadbirlarda faollik ko'rsatgan, badiiy xavaskorlarga yordamlashgan o'quvchilarni raqbatlantirib borishni ham maqsad qilib qo'ydik. Rejamizdagi repertuarlarimizning xilma-xilligi mamlakatimiz miqyosida o'tkaziladigan «O'zbekistonim Vatanim Manim» «Siz tarixni bilasanmi» kabi ko'rik tanlovlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishimizda bosh omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ish rejamizda kiritilgan qo'shqnii umumta'lim maktablarida hamda bolalar musiqa maktabi bilan bevosita hamqorlik qilish yaxshi natijalar beradi.

To'garak mashg'ulotlari har haftada 2 marta 1,5-2 soatdan muntazam ravishda olib borish rejaga kirgizildi. Mashg'ulotlarni olib borish uchun aloxida hona, imkoniyatdan kelib chiqib rubob, dutor, doira, akkordeon kabi kerakli musiqa asboblari bilan ta'minlandi. Mashg'ulot kunlari ham soatlari ham aniq ko'rsatib o'tildi. To'garakka o'quvchilar orasidan boshliq (starosta) yuqori sinf o'quvchisi saylanadi. Har bir mashg'ulot uchun navbatchi tayinlash, mashg'ulotlarga qatnashuvchilarning hisobini olib borish yaxshi natija berdi.

Mashg'ulotlar davomida o'rta va ayniqsa katta guruqlar o'z-o'zini boshqarish printsipli yaxshi yo'lga qo'yilib aktiv ishtirok etuvchilarni doimo ragbatlantirib turish musiqa bilan yurish, san'at kolejlari, pedagogika institutlarining musiqa ta'limi bo'limlariga o'qishga kirishni istaydigan o'quvchilarga doimo alohida e'tibor berib borish, yo'l yo'riqlar ko'rsatish, kerakli adabiyotlarni tavsiya qilish, ularda musiqachi yoki musiqa o'qituvchisi to'grisida to'la tasavvur va tushunchalar xosil qilib borishni yo'lga qo'yilganligini e'tirof etishni lozim deb topdik. Chunki to'garak ishlari yaxshi yo'lga qo'yilganligi o'quvchilarni -kolejlarga, oliygoxlarga o'qishga qirishlariga yordam berdi. Foydali tomonlaridan yana biri to'garakni sobiq qatnashchilari bilan doimiy aloqa o'rnatish, uchrashuv kechalarni o'tkazib turish qam kasb-xunar tanlashni yo'lga qo'yishda o'ziga xos ta'sirchanlikka ega bo'ldi.

Maktabda tashkil etishgan to'garakda muayyan maqsadni ko'zlab ish olib borilishi, birinchi sinfdan boshlab qo'shiq o'rgatishni yaxshi yo'lga qo'yilishi

mazkur to'garakda o'quvchilarning yoshlariga qarab guruhlar tuzishga amal qilindi. Bunda quyidagicha yosh xususiyatlarga qarab amal qilishni lozim topdik.

- a) Kichik guruh 7-9 yosh ya'ni 1-3 sinflar.
- b) O'rta guruh 10-12 yosh ya'ni 4-6 sinflar.
- v) Katta guruh 14-16 yosh ya'ni 7-9 sinflar.

Shuni ham aytish kerakki, xor, ansambl, ashula yoki raqsga tushishda bolalarning hohishi bor yoki yo'qligiga qaramasdan, musiqiy qobiliyatini tekshirib qabul qilish yaxshi natija beradi.

Xulosa qilib aytganda to'garaklarga o'quvchilarni qiziqishlarini tobora ortirib borish uchun avvalo davr talablariga mos alohida jihazlangan maxsus xona, mashgulotlarga kerakli asbob-jixozlar, kerakli adabiyotlar, to'garak a'zolariga maxsus kiyimbosh tiktirish, to'garakda erishgan yutuqlarini ota-onalariga namoyish etish, o'zlari haqida chop etilgan maqolalarni matbuotda o'qish to'garak a'zolarining to'garaklarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Mustaqillik xalqimizning umuminsoniy, milliy-madaniy qadriyatlarini o'rganishga keng yo'l ochdi . Natijada milliy-madaniy qadriyatlar tizimida muhim mavqega ega bo'lgan xalq musiqa ijodiyotini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish imkoniyatlari yuzaga keldi .

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining yangitdan yaratilgan musiqa fani bo'yicha o'quv dastur va darsliklariga kiritilgan xalq musiqa ijodiyotiga mansub kuy ,qo'shiqlar sirasida xalq qo'shiqlari salmoqli o'rin tutadi . Xalq qo'shiqlari o'z ifodaviy mazmuniga ko'ra qudratli tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan san'at hisoblanadi . Xalq ijtimoiy hayotining eng muhim qirralarini o'ziga xos badiiy in'ikosi sifatida an'anaviylik va vorisiylik asosida avloddan – avlodga o'tib kelayotgan va ularning ta'sirida yaratilayotgan qo'shiqlar o'z tinglovchilariga bevosita yoki bilvosita axloqiy – estetik ta'sir kuchi bilan ajralib turadi .

Musiqa darslari hamda to'garak faoliyatida esa xalq qo'shiqlarini tinglash , o'rganish , jamoa bo'lib kuylash va ular haqidagi muhtasar ma'lumotlar bilan tanishish jarayonida o'quvchilar xalqimiz milliy

o`zligining eng muhim jihatlari, ya'ni ,tili , adabiyoti , tarixi , madaniyati va etnografiyasi bilan yaqindan tanishib boradilar . Xalq qo`shiqlarining mazmunida aks etgan vatanparvarlik , insonparvarlik , qahramonlik , vatanni himoya qilishga da'vat , ota- onani e'zozlash , kattalarga hurmat , kichiklarni izzat qilish, to`g`rilik , halollik , poklik , imon va e'tiqodga chorlovchi yuksak g`oyalar o`quvchi – yoshlar ongida milliy ong va milliy mafkurani shakllantirishda muhim omil bo`lib xizmat qiladi .

Musika to`garak faoliyatlarini rejalashtirishda va tashkil etish jarayonida to`garak rahbariga beriladigan mustaqil repertuar tanlash imkoniyati bu ishga jiddiy mas'uliyat bilan yondashishni talab qiladi .

Shunday ekan , dars va darsdan tashqari musiqiy faoliyatda xalq qo`shiqlarini tanlab olish maxsus pedagogik yondashuv va mezonlar negizida amalga oshirilishi zarur . Ushbu yo`nalishdagi ilmiy kuzatuv va tajribalar musiqiy ta'lim mashg`ulotlari uchun xalq qo`shiqlarini tanlashda quyidagi mezonlarni belgilash imkonini beradi :

1. Tanlanayotgan xalq qo`shiqlarining har bir sinf uchun belgilangan dastur hamda o`quvchilar o`zlashtirishi lozim bo`lgan bilim va malakalar mazmuniga mos bo`lishi . Bu o`rinda o`quvchilarning yoshi , kuylash imkoniyatlarini e'tiborda tutish lozim bo`ladi .

2. Xalq qo`shiqlarining tarbiyaviy – ta'sirchanlik xususiyatga ega bo`lishi . Bunda tanlangan qo`shiqlarning badiiy yuksak ijod namunasi ,ya'ni shakl va mazmun mukammalligiga , shuningdek , qo`shiq matnida ifodalangan g`oyaviy mazmunni ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadlariga mos kelishiga e'tibor berish nazarda tutiladi .

3. Xalq qo`shiqlarining o`quvchilarni umumiy dunyoqarashlarini kengaytirish uchun amaliy jihatdan ahamiyatli . Bu o`rinda qo`shiqlarni janr (alla ,yalla ,katta ashula , ashula , terma va h. k.) va mavzu jihatidan (tarixiy , harbiy ,vatanparvarlik , mehnat va mavsumuy ,marosimiy , diniy va h. k .) rang-barangligi , shuningdek , turli sanalar va bayramlar bilan bog`liqligiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

4. Xalq qo'shiqlarining o'quvchilarni badiiy – estetik tarbiyalash bilan ularning boshqa fanlarni o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etishi . Bu o'rinda qo'shiqlarni o'rganish va kuylash jarayonida musiqani boshqa fanlar bilan aloqadorlik xususiyatlari (o'yin , ritmik harakatlar bajarish, adabiy , tarixiy ma'lumotlar , nazariy taxlil kabilar) dan foydalanishga e'tiborni qaratish kerak.

5. Xalq qo'shiqlarini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish uchun qulayligi va tushunarligi .

6. Xalq qo'shiqlarini tanlashda mahalliy manbalarga tayanish .Bu o'quvchilarda mahalliy an'analarga qiziqish va ijodiy tashabbuskorlik fazilatlarini shakllantirishda muhim omil bo'ladi .

7. Boshqa xalqlarga tegishli qo'shiqlardan ham repertuarga kiritish .

Bunday yondashuv turli xalqlar qo'shiqlarini o'zaro mushtarak va o'ziga xoslik jihatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali o'quvchilarda boshqa xalqlar madaniyati va san'atiga hurmat va ma'lum tushunchalarning shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi .

Musika madaniyati darslarida hamda musiqiy to'garaklari faoliyatida xalq qo'shiqlarini tanlash va ulardan foydalanishda , jamoa bo'lib kuylatishda ta'kidlab o'tilgan pedagogik mezonlarga har bir o'qituvchi o'z imkoniyati, mavjud pedagogik shart – sharoitlarni hisobga olgan holda ijodiy yondashishlarini taqozo etadi . Ayni chog'da , musika ta'limiga xos bo'lgan mustaqil repertuar tanlash–imkoniyatlari bunday yondashuvlar zaruriyatini vujudga keltiradi .

Bolalarni estetik ruhda tarbiyalashda musika fanining ahamiyati juda kattadir . Keyingi yillarda bolalar va o'smirlarning musiqaviy – estetik tarbiyasini rivojlantirishda ancha o'zgarishlar bo'ldi . Musika fani bo'yicha pedagog kadrlar tayyorlash kengaydi , bolalarning musiqiy badiiy – havaskorlik faolligi oshdi.

Bolalarda estetik tarbiyani rivojlantirishda birinchi navbatda maktabning roli juda kattadir . Maktabda estetik tarbiyaning asosi bo`lgan musiqa , pedagog rahbarligida va yordamida muntazam ravishda olib boriladi .

Musiqa o`qituvchisi hamda to`garak rahbari boshchiligida o`quvchilarning sekin – asta musiqiy eshitish qobiliyatlari o`sa boradi . Berilgan asarni taxlil qilishni ya`ni , kuy , uning garmoniyasini o`ziga xos xususiyatlari , ritm , dinamik holatlar , lad tuzilishi va ularning o`zaro bog`liqligini o`rgana boradilar .

Shuni aytib o`tish joizki ,o`quvchilar musiqaviy malakalari , musiqaviy fikrlash doirasi qanchalik keng , ularning estetik hissiyotlari va musiqaviy idroklari qanchalik yorqin bo`lsa , umumiy musiqaviy darajalari uchun shunchalik keng imkoniyatlar yaratiladi .

Ayni damda bu darajani bir – biri bilan bog`liq bo`lgan ikki yo`l :

1. Umumta`lim maktablarida jamoa qo`shiqchiligini yo`lga qo`yish va sinfdan tashqari bolalar musiqaviy badiiy – havaskorlik to`garagi ishlari ;

- 2.Uularning o`zlari nimani ijro eta olsalar , shuningdek , ularning estetik hissiyotlari , tushuncha va qiziqishlariga yaqin bo`lgan , lekin biroz qiyinroq musiqani keng tanishtirish yo`li bilan rivojlantirish mumkin bo`ladi .

Umumiy o`rta ta`lim maktablarida musiqiy to`garaklarni tashkil etish juda katta ahamiyatga ega . Chunki , bolalar musiqa va san`at maktablarida badal to`lovlarini to`lash uchun ayrim oilalarning imkoniyatlari chegaralangan . Farzandlarining esa qiziqishlari zo`r va iqtidori ham etarlichadir . Bunday imkoniyatni esa bolalar umumta`lim maktablarining dars jarayonlarida hamda uning uzviy davomi sifatida musiqiy to`garaklardan oladi . Shuning uchun ham musiqiy to`garaklar tashkil etish , ya`ni , bolalar folklor ansambli hamda xor jamoalarini tuzish katta ahamiyat kasb etadi .

2.1. Xonandalik to'garagi rahbarining tashkilotchilik va uslubiy etukligi

Ma'lumki millat bir vujud. haqiqiy milliy musiqa ana shu vujudning tozaligidan dil q'ridan suzib qaynab chiqadigan buloq kabidir. Bu buloqning ma'naviy xislatlaridan bahramandlikni ayni maktab yoshidan maktab o'quv rejasiga kirgan darsdan tashqari tashkil qilinadigan to'garaklardan tashkil qilinadigan to'garaklardan boshlanadi. Chunki musiqiy to'garak dars va darsdan tashqari iste'dodlarni charhlashda dialektik birlikni ta'min etuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Bunda musiqa tarbiyasining yuksak darajada bo'lishi, xonadalik ansambli gimnining tashkiliy tamoyillariga to'liq rioya qilishga bogliq. To'garakni tashkil qilishda tashkilotchi avvalo maktab ma'muriyati sinfdan tashqari ishlar bo'yicha tashkilotchi sinf rahbari va o'quvchilarning faoliyatiga tayanadi.

Badiiy va pedagogik maqsadlarni hamda mashg'ulotlar rejasini aniqlash – xonandalik ansamblini tashkil etish uning ishini muvaffaqiyatli ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. To'garak mashg'ulotlari dasturi maktabning ichki sharoitini o'quvchilarning individual xususiyatlarini qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olib izchil ravishda olib boriladi.

Ansamblidagi tashkiliy ishlarning muhim vazifalaridan biri uning mashg'ulotlari uchun optimal sharoitlar yaratishdir. Boshqacha aytganda ansambl jamoasi uchun keng, yorug' zal yoki yaxshi yoritilgan jihozlangan xona ajratish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlar o'tkaziladigan xonada zarur jihozlar sozlangan pianino va o'zbek xalq asboblari nota chizigi chizilgan doska, magnitafon, ijrochi o'z hatti-harakatlarini borshkarish uchun maxsus ko'zgu o'quv qurollari va ularni saqlash uchun maxsus moslama va shkaflar bo'lishi lozim. Shkafda o'quvchilarning ijodiy ishlari qo'shiqlar yuzasidan yozgan insholari saqlanadi. Xonani turli ko'rgazmali jihozlar bilan jihozlab unda devoriy gazeta musiqa hayoti yangiliklari, to'garaklarning chiqishlari haqidagi yozuvlar turli e'lonlar osib qo'yish mumkin. Shuningdek, xonaning plakatlar, kompozitor, mashhur qo'shiqchilar, san'at arboblarning portretlari bilan bezash, pardalar osish, gullar qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Jamoa tashkil etilgan dastlabki kunlarda eng faol o'quvchilardan ansambl etakchisi va uning o'rinbosarini saylash lozim. Ularning vazifasi to'garakdagi intizomni mustahkamlash, mashqulot uchun joy, nota materiallarini tayyorlash, rahbariga yordam berishdan iborat bo'lishi lozim. Shuningdek, ular ansambl qatnashchilarining davomatini ham tekshirib boradilar.

To'garak raqbari oliy va o'rta maxsus musiqa bilimga, xonandalik san'ati bo'yicha ma'lum tajriba va malakaga ega bo'lgan o'z kasbini dildan sevadigan mutaxassis tayinlamogi lozim. Chunki to'garak rahbarini zimmasiga qo'shiqlar orqali o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitish, ularga keng va soglom dunyoqarash, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, Vatanga muhabbat va ezgulikni qadrlash kabi ijodiy fazilatlarning tarkib toptirishdek muhim mas'uliyatli vazifa yuklatiladi. Rahbar ilmidan o'z ishiga qiziqqan o'quvchilarning fiziologiyasi va psixologiyasini yaxshi biladigan bo'lishi kerak. U bolalarga muloyimlik bilan yondasha olish o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va intilishlarini birlashtira bilish, ularni jamoaning maqsad va vazifalarga kelishtira olish lozim.

Rahbarning qo'shiq aytish manerasi va qo'shiqchilik usullarini to'g'ri ko'rsatishi katta ahamiyatga molik, chunki, bu o'quvchilar ovozi to'g'ri shakllantirishlarida namunaviylik rolini o'taydi. Rahbarning vokal qobiliyati yaxshi rivojlangan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Chunki u ovoz jaranglashiga ko'ra qatnashchining tovush apparati to'g'ri yoki noto'g'ri shakllanishini, undagi sezilarli patologik o'zgarishlarni ham darhol payqab ola bilishi kerak. O'quvchilarning musiqiy badiiy va xonandalik salohiyatini rivojlantirishga mas'ul bo'lgan ansambl rahbari:

- A) O'z predmetini chuqur bilishi o'quv materialini tushuntira olishi, ko'rgazmali vositalardan ustalik bilan foydalanishi;
- B) Mashgulotlarda egallangan bilimlarni o'quvchilarning kuzatishlari, hayotiy tajribalari bilan boglay olishi;
- V) Mashgulotlardan o'tilgan aniq mavzudan kutilgan axloqiy-estetik maqsadning to'g'ri va aniq belgilashi hamda ularni hal etish uchun turli vositalarni topa olishi;

G) Jamoa bilan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini bilishlari darajasini hisobga olish, ularning qiziqish, talab, moyillarini aniqlash va e'tiborga olish;

D) Yuksak madaniyatli bo'lishi san'atni chuqur bilishi ovozini kayfiyatini idora qila bilishi san'atni va adabiyot sohasidagi bilimni muntazam boyitib borish kerak.

Zero, rahbar o'zining benuqson hatti harakati fidokorona mehnat bilan o'quvchilarning hurmat va e'tiboriga sazovor bo'lishi, ular uchun namuna xizmatini o'tashi kerak.

Xonandalik to'garagida uslubiy ishlar samaradorligi

Davr o'tishi, tuzumlar o'zgarishi va avlodlar almashinishi bilan har bir mamlakatda musiqaviy vaziyat va musiqiy muhit o'zgarib boradi. Bu an'anaviy jarayon. Lekin, ushbu o'zgarish milliy madaniyatning asl zaminidan uzoqlashmasligi, taraqqiyot milliy musiqa o'zagida kechishi lozim.

Nazarda tutilayotgan vazifalar umumta'lim maktabidagi xonandalik to'garagi faoliyatida iste'dodli o'quvchilarning umumiy musiqiy etukligiga asoslanadi. To'garakka avvalo, yaxshi ovozli musiqadan qobiliyatli qo'shiq san'atiga jon dilidan sevadigan 5-7 sinf o'gil-qizlari jalb etiladi. Ularni tanlashda anketalar, suhbatlar, uchrashuvlar kabi turli metodlardan foydalaniladi. Shuningdek, ularni bu janrga qatnashish o'qituvchining individual sinovidan o'tishi kerak. Buni o'quvchilar ovozini ta'sirchanligi, diapazon kengligi hamda ritmik qobiliyatligi o'zbek xalq qo'shiqlariga bo'lgan qiziqishi kuylashga bo'lgan ishtiyoqi o'zbek adabiyotini sevishi va uni yaxshi tushinishi kabilar e'tiborga olinishi lozim. Yuqori sinf o'quvchilaridan 2 guruq, ya'ni yakkaxon xonandalar va ashulachilar ansambli tuzish maqsadga muvofiqdir. Yakkaxon bilan individual tartibda o'quvchi o'zi cholg'u asbobida jo'r bo'lib, bir necha o'quvchilardan tuzilgan cholg'uchilar jo'rligida mashg'ulot olib borishi mumkin. Har bir qatnashchining mashg'ulotlarda o'zini sozlash, idora qilish ovoz jarangdorligi va diapazon ko'lamiga, ritmik sezgirlikka qo'shiqlarni badiiy ta'sirli ijro etishga erishmogi lozim.

Bunda ansamblning har bir a'zosi jamoaviy harakatga bo'ysinish, intizomli bo'lishi, mas'uliyatni his qilishi talab qilinadi.

O'qituvchi o'quvchilar ovozi o'ziga xos fiziologik xususiyatlarini yaxshi his etishi rivojlanish spetsifikasini to'la anglamogi va amaliy mashg'ulotlarda birga amal qilishi zarur. Chunki amalda yuqori sinf o'quvchilarida, ayniqsa o'g'il bolalarda tanglayning tez o'sishi tufayli ba'zida ovozi normal holati buzilib kattalar ovozi o'xshab yo'gonlashib, do'ngillab qolishi ko'p kuzatiladi. Bu davr ovozi evolyutsiyasi uchun ancha mas'uliyatli bo'lganligi sababli mashg'ulotlar o'ta ehtiyotlik bilan olib borilishi kerak. Mutatsiya (rastalik) davrida o'quvchi imkoniyatiga qarab quyi ovozlarda kuylashi yoki vaqtincha kuylamsdan turishi ham mumkin. bu sharoitda o'quvchi, albatta vrach nazoratida bo'lmogi va zarur ko'rsatmalarni bajarib turishi shart.

To'garak qatnashchilarining yosh xususiyatlarini ovozi imkoniyatlarini hisobga olmaslik mumkin emas. Ma'lumki, 12-14 yoshli qizlar jismoniy va emotsional jo'shqin rivojlanadilar. Ularning ovozi diapazoni kengayadi. «Si» Kichik oktavadan – «Sol» ikkinchi oktavagacha ishchi diapazoni «fa» ikkinchi oktavaga etadi. Ko'krak rezanatorlari ishga faolroq qo'shilib talablar aniqroq namoyon bo'la boshlaydi. Ovozi rasta bo'lish davrida tovush apparatlaridagi o'zgarish shunchalik jiddiy bo'ladiki, ayrim qizlarni bir guruhdan boshqasiga ko'chirishga to'g'ri keladi. Bu davrda ularni yakka-yakka tinglashni tashkil etish, tovushni kuchaytirishga ovozi apparatini zo'rqiqtirishga yo'l qo'yimaslik muhimdir.

13-14 yoshli o'g'il bolalarda o'spirinlik ovozi barqarorlashadi. Bu davrda o'spirinning ovozi diapazoni («re» kichik oktavadan «re»gacha ishchi diapazoni «re» kichik oktavadan «do» gacha) etadi. Rastalik davrida kuylayotgan bolalar va o'spirinlar, o'zlarining eng yuqori tovush chegaralariga etish mashq qilishni bir oktava pastroq davom ettirishlari mumkin.

Mashg'ulotlar jarayonida talaffuzdagi nuqsonlarni bartaraf etish, intonatsion soflik, ritm va o'lchovni his etish musiqiy iqtidorni rivojlantirishga erishiladi. Ana shu musiqiy vokal malakalarga asoslanib qo'shiqlar ustida ishlash mumkin.

Bolalar ijodiy jamoalarda qanchalik muntazam qatnashmasalar, ularni qo'shiqchi bo'lib o'sishlari shunchalik samarali bo'ladi. To'garakda bir necha yillar birga shugullangan o'quvchilar o'rtasida o'zaro do'stona, uzoq vaqt davom etadigan ilik, samimiy munosabatlar tarkib topadi.

O'quvchilarning xonandalik qobiliyatlarini tarkib toptirishda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishda, jumladan o'zbek xalq qo'shiqlari juda qo'l keladi.

Repertuar yuksak goyaviy badiiy jihatdan jamoaning ijodiy hamda yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi, ijro uchun qulay ko'p rejali, xarakteriga ko'ra ansambl qatnashchilariga mos tarbiyaviy maqsadlarga ega bo'lishi lozim.

Yangi asarni ansambl rahbari tanlaydi. U albatta jamoa fikriga quloq solish, ular bilan maslahatlashishi zarur. Biroq ansambl rahbari hal qiluvchi rol o'ynaydi. U doimo repertuarga mazmunli, yuksak goyaviy qo'shiqlar kiritish maqsadga muvofiq.

Jamoada o'rganish uchun qabul qilinayotgan qo'shiqlar to'garak a'zolari va tinglovchilarning musiqiy didini rivojlantirishga xizmat qilishi goyaviy mazmunining chuqurligi bilan ajralib turishi kerak. Ma'lumki qo'shiqni kuylash mashg'ulotning asosiy va muhim elementlaridandir. Chunki, bolalar qo'shiq kuylar ekanlar, ushbu qo'shiq asosidagi badiiy va goyaviy mazmunni chuqurroq his qiladilar. Qo'shiqlarni:

- O'quvchilarning vokal tayyorgarligiga muvofiqligi;
- Mazmunining turli bayram, festival, yubiley va axloqiy-estetik ahamiyatga ega bo'lgan boshqa muhim voqealar bilan tematik hamohangligi;
- Turli xalqlar qo'shiqlarining o'zbek xalq qo'shiqlariga ohang, ritm, til xarakteri jihatidan yaqinligi kabi talablar bo'yicha tanlash maqsadga muvofiqdir.

Bundan asosiy maqsad, o'quvchiga matnni tushunishga, uning asosiy ma'nosini anglashga goyasi obrazlari bilan tanishligiga yordam berishdir. Asarning goyasini «jo'shqni zavq» sifatida egallash jarayonida o'quvchilarning yorituvchilik tasavvurlari katta ahamiyat kasb etadi. Agar bolalar tasvirlanayotgan fikrni aniq tasavvur etsalar o'zlarining ma'lum munosabat shaxsiy tajribalari bilan birgalikda ijroga undaydigan go'zal, jonli hayotlarini kuylaydilar.

Nafas qo'shiqda juda katta ahamiyatga egadir. Tovushning kuchi, go'zalligi, davomiyligi nafasga bogliq. Nafas erkin, bir tekis tabiiy bo'lishi kerak. Ko'pchilik o'quvchilar qancha nafas olish kerakligini darhol tushunib etmaydilar. Ularning ko'pchiligi nafas olishda elkalarini ko'taradilar. Bunday nafas qichqirib qo'shiq aytishga olib keladi. Rahbar qorin mushaklari, ko'krak qafasining quyi qismlari nafas olishda qanday ishlashini tushuntirish, so'ngra o'zining namunasida ovozning to'g'ri va noto'g'ri olishda jaranglashdagi farqni ko'rsatishi kerak. qo'shiq aytish jarayonida nafas qisqa dinamik bo'lishi kerak.

Vokal qo'shiqlarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar ovozini rivojlantirish va uning tabiiy holatini saqlab qolishga ko'maklashishdir. Buning uchun so'z bo'g'inlari va matnlarni birinchi oktava oraligida yuqoridan pastga tomon engil kuylash tavsiya etiladi. Chunki, ovoz yuqoridan pastga harakat qilganda yuqoridagi tovushlarda bosh ovoz ko'proq ishga tushganligi sezilib, o'quvchilar ovoz apparatlarini, fiziologik faoliyati normal darajada bo'ladi. bosh ovoz ishlash jarayonida tomoqning kompasi to'g'ri ishlashi yo'lga qo'yilib ovoz paylarining mo'tadil qo'shiluvi vujudga keladi.

Mashqlarni kuylashda unli tovushlarning yorqinligiga, undosh tovushlarning aniqligi va jarangdorligiga erishmogimiz lozim. Ovoz apparati: til, lab, tomoq, ovoz rezanatori va boshqa vositalar adabiy til fonetikasi talablariga to'liq javob bermogi darkor. Kuylashni to'g'ri tashkil etishda nafas ustida ishlash muhim ahamiyatga ega. Nafas olishda gavdani to'g'ri, elkalarni zo'riqtirmasdan tekis tutib, nafasni xotirjam va tejamli ishlatishga o'rgatish lozim. Yuqori sinf o'quvchilariga ovoz apparatlarining tuzilishi, ish faoliyati, ovozni parvarish qilish usullari tushuntirilmogi lozim.

O'quvchilarda ovoz etarlicha sayqal topmagan bo'ladi. Shunday ekan, ovozni zo'riqtirmasdan oqilona ishlatish, kuylash, rejimga qat'iy roya qilish kerak. Rejim quyidagicha mashgulotlar haftada ikki marta o'tkazilib boriladi va har 20-30 daqiqada ovozga dam berib turiladi. Mashgulotlar belgilangan vaqtda boshlanmogi va o'quvchilarni mashgulot boshlanishida 5-10 daqiqa avval o'z o'rinlarida bo'lishiga odatlantirmoq lozim.

Mashgulot ovoz ishlatishning barcha talablariga to'liq amal qilgan holda o'tkaziladi. Uning tartibi quyidagicha: avval ovoz sozlash mashqlari va solfedjio, so'ng bevosita asarni o'rgatishga o'tiladi.

Ansambldagi ishda «unisonni» (ohangdoshlik) tarbiyalash asosiy o'rin tutadi. Bu jiddiy, qiyin va o'ta mas'uliyatli vazifa, chunki ansambldagi yaxshi unison – sof kuylashning asosidir.

Unison ustida ishlashni «lyo», «lyu» bo'ginlaridagi bir so'zni kuylashdan boshlasa ham bo'ladi, so'ngra qiyinroq qo'shiq tanlanadi. Bu ish o'rganilayotgan qo'shiqlar asosida bajarilishi ham mumkin.

Fikrimizcha unisonni mashq qilishda «tor» tovush balandligining aniq qayd etuvchi unli «u» dan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bunga unli «u»ning paydo bo'lishiga yordam beradi, tovush parchalari va nafasning ishi faollashadi.

Unison ustida ishlaganda yopiq ogiz bilan kuylashni qo'llash foydalidir. Bu usul qo'shiqchilarning tinglash diqqatini kengaytiradi, hamda yuqori va pas yo'nalishini his etish imkonini beradi.

Rahbar yosh qo'shiqchilarda ritmni his etishni tarbiyalashga ham katta e'tibor berishi kerak. Fikrimizcha bo'ginning murakkab ritmik cho'zimlarini o'rganishda nisbatan to'g'ri keladigan «bum» - chorak, «bak-bak» - sakkiztalik, «ba-ka», «ba-ka»- o'n oltitalikda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Qatnashuvchilar uchun qiyinchilik hosil qiladigan ritmik cho'zim ustida ishlaganda boshqa misollardan ham foydalanish kerak, chunonchi ritmni ayrim o'quvchilar, shuningdek. Butun ansambl tomonidan qarsak bilan ifodalashlari mumkin bo'ladi. Bularning barchasi musiqa savodi mashgulotlari, hirgoyi qilish va yangi qo'shiq o'rganish vaqtida amalga oshiriladi.

Qo'shiq kuylashda unlilar katta ahamiyatga egadir, chunki ovozning barcha vokal sifatlari faqat unlilardan boshlanadi. Rahbar qo'shiqda undoshlar emas, balki. Faqat unlilar kuylashni tushuntirishi, o'zi kuylab ko'rsatishi kerak, u taxminan shunday tushuntiradi. «qo'shiq chiroyli kuylanishi uchun tovushning huddi surnayda puflab chiqarayotgandek cho'zish kerak. «Buni huddi gijjak

ovozidek kuylash kerak (bu o'rinda qo'l bilan kamoncha harakatini ifodalash mumkin)».

Unlilar jaranglashining yagona manerasida kuylanishi lozim. Buning majburiy sharti turli unlilarni kuylash vaqtida tomoqni barqaror holatda saqlashdir.

Mashq qilish tarzida turli unlilardan tarkib topgan bo'g'inlarni: ma, me, mi, mo, mu, lya, li, lyo, lyu va shu kabi bir tovushdan (bir nafasdan) kuylash mumkin.

Qo'shiqda undoshlarni tabiiy talaffuz etishni shakllantirish ham pedagogdan katta mas'uliyat talab qiladi. Undoshlar mumkin qadar qisqa, biroq bu qisqalardan ular aniq va hatto uch kirra talaffuz etilishi kerak. Undoshlar talaffuzi. Aniq talaffuzni rivojlantirish, lablar faolligini, tilni to'g'ri joylashtirishni tarkib toptirishi lozim.

Ansamblida kuylanadigan mashqni biroz murakkablashtirilib, diapazoni kengaytiriladi. Masalan, ansambl uchun dastlabki mashq mi – me – mo – mu tovushlarini kuylash bitta unlili i – e – a – o – u- ni anchagina sekin tempda uzluksiz nafas bilan bajariladi. Shuningdek, keyinchalik nafasni mustahkamlash, ijroni rivojlantirish, yuqori vokal ijrosini mustahkamlash mashqlari ham qo'shiladi.

Ovozni sozlash uchun mashhur o'zbek ashulalaridan «Yallami yorim», «Ililla yor», «Osh xo'rak», «Laylak keldi» va boshqalardan parchalar berish mumkin. Ularni turli tonalliklarda o'rganib, turli bo'g'inlar, uzluksiz nafas ijrolaridan foydalanib kuylash kerak. Yuqoridagi musiqa asarlari yordamida nafasni mustahkamlash, tovushning tekisligi va kuchini rivojlantirish ustida ishlash qulay. U ansamblning keyingi ishlari muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Keltirilgan misollarda ijro xususiyatlari, kuylash usullarining xilma-xilligi, ya'ni kerakli tembr, qo'shiq malakasini egallashda ahamiyatli bo'lgan narsalarning seroblighi, ravshan ko'rinib turibdi. Chunki. Bularsiz, boshqa afzalliklardan qat'iy nazar ijro professional jihatdan mukammaal hamda badiiy etuk bo'lolmaydi. Aks holda xalq qo'shigi u yoki bu darajada formal, nursiz emotsional ta'sirdan mahrum bo'ladi.

**Umumta'lim maktablarida folklor ansamblini tashkil etishning
amaliy – metodik asoslari .**

Ma'lumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari jamoa tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan . Keyinchalik esa iqtidorli kishilar tomonidan yaratilgan . Ular o'z ijodida qabila va urug' odamlari hohishlari , e'tiqodlari , atrof – muhit bilan munosabatlari hamda dunyoqarashlarini hikoya qiladilar .

Ijrochi va ijodkor asar yaratishda o'rgangan tajribaga suyanadi . Unga ijodiy yondashib , uni sharoitga moslashtiradi . Jamoa tomonidan yaratilgan asarlar shu tariqa takomillashtirilib , xalq mulkiga aylanadi . Zotan , xalq kuychisi (dostonchi , latifachi , ertakchi , qo'shiqchi , askiyachi) jamoa tomonidan yaratilgan asarlarni boshidan – oxirigacha so'zma – so'z yod aytmaydi , balki unga ijodiy munosabatda bolib , o'zidan nimadir qo'shadi . Mustaqillik yillariga kelib folklor ansambllariga bo'lgan qiziqish va e'tibor kuchaymoqda .

Maktab o'quvchilarini foydali mehnatga yo'llash , ularga kasb – hunarga muhabbat tuyg'usini shakllantirish ta'lim xodimlari oldida turgan bosh masalalardan biri hisoblanadi . Bu ulkan vazifani xalq etishda musiqiy to'garaklarda tashkil etiladigan bolalar folklor ansambli qo'l keladi . Uni tashkil etish esa , to'garak rahbarida xalq ijodiyotini , uning janrlarini va o'ziga xos chegaralarini bilishni talab qiladi . Xalq qo'shiqlariga murojaat qilishning o'zigina juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega . Uni faol o'zlashtirish esa o'quvchilarning xalq musiqasiga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va o'z navbatida vatanparvarlik , ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalaydi . Folklor ansambli boshlang'ich sinf o'quvchilaridan yoki o'smirlardan tashkil topgan bo'lishi mumkin . Bolalar kichik yoshidan boshlab o'yin holatida o'rgatiladigan har – xil aytishuvlar , hazil qo'shiqlari va allalarni jon dillari bilan qabul qiladilar . O'zbek folklor asarlari ikki guruhga bo'linadi :

1. Urf – odat va ma'rosimlar bilan bog'liq asarlar ;
2. Turli urf – odat va ma'rosimlarga bog'liq bo'lmagan folklor asarlari .

Birinchi guruhga : mehnat , mavsum , ma'rosim , olqish , afsun va qarg'ishlar , aytimlar kiradi .

Ikkinchi guruhga : doston , ertak , afsona , rivoyat , lof , latifa , qo'shiq , ashula , termalar , askiya , og'zaki dramalar , maqol , topishmoq kabi janrlar kiradi .

Ansambl repertuariga xalq an'alarini o'zida mujassamlashtirgan o'zbek basrakorlarining asarlaridan ham kiritish mumkin . Ular mazmun jihatidan bolalar uchun tushunarli bo'lishi , ularda qiziqish uyg'otishi va shu bilan birga ijro etish imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak . Murakkab asarlardan foydalanish esa tovush hosil qilish malakasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va nafas organlari faoliyatining buzilishiga olib keladi .

Zarur ijrocholik malakalarini shakllantirish uchun xalq ijrochiligi yo'lidagi qo'shiqlarni tabiiy , jarangdor qilib kuylashga erishishga yordam beruvchi turli mashqlardan foydalaniladi . Bu sohada endigina ish boshlayotgan o'qituvchi yoki to'garak rahbari shunga e'tibor berishi kerakki , faol ijro etish xalq an'alarini bilan hech qanday umumiylikka ega bo'lmagan tovush zo'riqlashiga aylanib qolmasligi kerak . Xalq musiqasidan tashkil topgan konsertlarga borish, shuningdek , texnika vositalari yordamida bunday asarlarni tinglash va uni taxlil qilish o'quvchilarning tinglash madaniyatini , musiqaviy didini , dunyoqarashini shakllanishiga yordam beradi . Bolalar folklori ansambli bilan ishlash , o'qituvchidan qo'shiq materialini qunt bilan taxlil qilishini , xalq qo'shiqlari , yozuvlarini tinglashni va o'rganishni , repertuarni mukammal o'zlashtirish yo'llari va vositalarini izlab topishi kerak .

Birinchi guruhga oid bo'lgan mehnat qo'shiqlarining yaratilishi va ijro etilishi , kishilarning mehnat jarayoni bilan bevosita bog'liq holda mehnatni yengillashtirishga qaratilgan ko'tarinkilik , hushchaqchaqlik va didaktik xarakterda bo'ladi . Mehnat va san'atning o'zaro munosabati ana shu o'ta muhim masalalardan biridir . Chunki , mustaqil diyorumizda « mehnatsiz

hayotning go`zalligini chin yurakdan his qilish mumkin emas , o`z o`rnida go`zallikni his qila olmaydigan inson biror – bir mukammal narsani yaratishga qodir emas » .

Prezidentimiz Islom Karimov o`zining « Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch » asarida :

-« Hammamizga ma`lumki , muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz , buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga , mardlik , saxovat va kamtarlikka chaqiradi .

O`z nonini halol mehnat bilan topadigan , xolis va ezgu ishlar bilan el – yurtga naf yetkazadigan , tiriklik mazmunini teran anglab , nafaqat bugungi hayot lazzatlari , balki , oxirat haqida , uning obod bo`lishi haqida o`ylab yashaydigan insonlarga xos hayotiy qarashlar » - haqida so`z yuritadi .

Yana shuni ham ta`kidlaydilarki , - « O`z peshona teri bilan halol turmush kechiradigan inson hayotidan mamnun va rozi bo`lib , qalbi va yuragi osoyishta , vijdoni pok , ruhiy olami barqaror bo`lib , elning hurmatini qozonib yashaydi »

Ona zaminga muhabbat va hurmat , uni ardoqlab , noz – ne`mat yaratuvchi insonga hurmat tuyg`usini tarbiyalash , ularni ana shunday insonlar boshlagan hayrli ishni davom ettirishga undab , kasb – hunarni ulug`lovchi quyidagi qo`shiqqa o`quvchilarning diqqatini jalb etish maqsadga muvofiqdir :

Bo`z to`qiyimiz qirg`og`ini o`xshatib ,

Moki otaman dastginamni qaqshatib .

Bozordagi shoilardan yaxshi etib ,

Nafisdan o`xshagan bo`zim yaxshidir .

O`qituvchi yoki to`garak rahbari kosibchilik hunari O`rta Osiyo xalqlarining qadimiy kasbikorlaridan elanligini gapirib , bu mehnat turi uzoq o`tmishdagi « Buyuk ipak yo`li » davrida ancha takomillashgani va hozirgi kunda esa hurmat va e`tibor topganligini alohida ta`kidlashi katta ahamiyat kasb etadi .

Taniqli o'zbek kompozitori G'ofur Qodirovning «Bog'imizga marhamat» qo'shig'i ham ana shunday mehnatni ulug'lovchi asarlardandir. Bu qo'shiqda esa bog yaratish, bunday go'zal bog'lar yurtimizni yanada yashnatishi haqida kuylanadi. Qo'shiqda bog'bonning mehnati, sarhil mevalar esa dasturxonimiz ko'rki, qolaversa, mevalar inson organizmi uchun bebaho ne'mat ekanligi haqida ma'lumotlar beradi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda «O'zbek xalqi yaratuvchan xalq. Kerak bo'lsa, do'ppisida suv keltirib bog yaratadi.»

Bunday mehnat qo'shiqlari o'zbek xalq og'zaki ijodida, bastakorlarimiz hamda kompozitorlar ijodida juda ko'plab topiladi. Bu mehnat qo'shiqlari o'quvchilarni birinchi tomondan mehnatsevarlikka o'rgatsa, ikkinchi tomondan musiqiy qadriyatlarga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bundan tashqari xalq musiqa ijodida urf – odat va mavsum – marosim qo'shiqlari hamda ularga bog'liq bo'lmagan qo'shiqlar ya'ni, yalla, ashula, terma, lapar va maqomlar mavjud bo'lib, bu asarlardan to'g'arak rahbari o'z faoliyati davomida unumli foydalanishi lozim. Bunday xalq durdonalarini to'g'arak faoliyatida to'g'ri qo'llay bilish, o'quvchilarni unga qiziqtirish to'g'arak rahbaridan mohirlikni talab etadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'quvchilar qalbiga milliy g'oyani olib kirish va ularning ongiga singdirishda musiqiy qadriyatlarning o'rni juda kattadir.

2.2 . Xor to`garagi tashkil etish va uning ahamiyati

Xor to`garagi qatnashchilarning umumiy musiqaviy dunyoqarashlarini kengaytirishga , jamoa bo`lib ijodiy mehnat qilishga , ko`pchilik mas`uliyatini his qilishga va ularda ahloqiy – estetik , milliy – g`oyaviy tarbiyani tarkib toptirishga qaratilgan bo`lishi kerak . Xor san`ati ommani jamoaviy ruhda tarbiyalash bilan birga , o`quvchilarni xalq qo`shiqlari ijodiyoti durdonalari va chet el klassik vokal – xor asarlari namunalari bilan tanishtiradi , ularning ma`naviy dunyosini boyitadi .

Xor shunday bir san`atki , unda adabiy va musiqiy ijodiyot o`zaro uyg`unlashib , yaxlit badiiy obraz yaratiladi . Bu san`at doimo xalq qo`shiqchiligi ijodiyoti bilan bog`liq bo`lib , milliy musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o`ynab kelgan .

Ko`pchilik bo`lib qo`shiq aytish deyarli hamma xalqlarning mehnat faoliyati , an`anaviy marosimlari , qolaversa , butun turmush hayoti bilan doimo bog`liq bo`lib kelgan .

Ma`lumki , an`anaviy marosim qo`shiqlari , u yoki bu ma`rosim munosabati bilan xalq tomonidan to`qilgan , xor bo`lib ijro etilgan .

O`rta osiyoda , jumladan o`zbek xalqi o`z professional xor san`atiga ega bo`lmasada , qadim zamonlardan beri jamoa bo`lib qo`shiq aytish an`analariga ega bo`lgan . Xalq ijrochilik san`atida aralash erkaklar va ayollar xorlari bo`lmasada , aloxida erkaklar , ayollar va bolalar tomonidan qo`shiq aytish an`analari bo`lgan . Masalan : turli mavsumiy sayrlarda , diniy marosimlarda , ramazon oyida bolalarning qo`shiq aytishi yoki kattalar zikr tutishi , marsiya qo`shiqlarini aytish ham jamoa ijrosining bir turidir .

Shuningdek , bolalar tomonidan « Boychechak » , « Laylak keldi » , « Oftob chiqdi » kabi dunyoviy mazmundagi xalq qo`shiqlari aytilganda ham jamoa ijro shaklini ko`rish mumkin .

O`zbekistonda musiqa va xor badiiy havaskorligi asosan yigirmanchi yillardan boshlab rivojlana bordi . Xususan shu yillarda o`quvchi va yoshlar o`rtasida va o`quv yurtlarida musiqa havaskorligi keng tarqaldi .

Hozirga kelib xor ijrochiligi xususan , bolalar xor qo`shiqchiligi keng tarqalgan . Bu san`at turi bolalar xor jamoalarining chiqishlarida , ya`ni yurtimizda o`tkazilayotgan katta bayram tantanalaridagi chiqishlarida , har – xil bolalar va o`smirlar bayram va festivallaridagi jamoalarning chiqishlarida , har – xil tanlovlardagi chiqishlarida namoyon bo`ladi .

Bolalar xori boshlang`ich va o`rta sinf o`quvchilaridan tashkil qilinadi . Uning tarkibida asosan diskant va alt ovozlari mavjud . Har qanday xor ma`lum ovoz guruhlaridan tashkil topgan bo`ladi . Bu guruhlar esa partiyalar deyiladi .

Xor partiyalari xonandalar ovozining ohangdorlik (tembr) harakteriga va diapazoniga qarab tuziladi . Bolalar xori ikki ovoz partiyasidan tashkil topadi :

1. Diskant – bolalarning yuqqori ovozi ;
2. Alt – bolalarning pastki ovozi hisoblanadi .

Bolalar xori quyidagi ko`rinishlarda bo`ladi :

- Bir ovozli bolalar xorida diskant va alt unisonda kuylaydilar .
- Ikki ovozli bolalar xori diskant va alt ovoz partiyalaridan iborat .
- Uch ovozli bolalar xorida ovoz partiyalaridan birining ikki ovozga bo`linishi, ya`ni : diskant 1 – 2 va alt yoki, diskant va alt 1 – 2 bo`ladi .
- To`rt ovozli bolalar xori esa har ikkala partiyaning ikkitadan ovozga bo`linishidan iborat : diskant 1 – 2 va alt 1 – 2 .

Bolalar xorining umumiy va ishchi diapazoni sol kichik oktavadan sol ikkinchi oktavagacha . Ovoz diapazonining ko`proq ishlatiladigan qismiga ishchi diapazon deyiladi . Ishchi diapazon esa umumiysidan qisqaroq bo`ladi . Bolalar va o`smirlar ovozining ishchi diapazoni esa do birinchi oktavadan re ikkinchi oktavagachadir .

Yengil tovush hosil bo`lmaguncha barcha mashqlar sekin tempda kuylanadi . Mashqlarni kuylashda unli tovushlarning yorqinligiga , undosh tovushlarning aniqligiga va jarangdorligiga erishish zarur .

Nutq apparati : til , lab , tomoq , ovoz rezonatori va boshqa vositalar adabiy til fonetikasi talablariga to'liq javob bermog'i darkor . Kuylashni to'g'ri tashkil etishda nafas ustida ishlash muhim ahamiyatga ega . Nafas olishda gavgani to'g'ri , elkani esa zo'riqtirmasdan tekis tutib , nafasni esa hotirjam va tejamli ishlatishga o'rgatish lozim . Nafas olishning ikki turi mavjud :

1. Aralash pastki qovurg'a – diafragma usulida nafas olish .
2. Zanjir yoki ulama nafas olish .

Pastki qovurg'a – diafragma usulida nafas olish .

Bu usul xonandalarga oldin tushuntirilib , keyin ko'rsatib berilishi kerak . Bunday nafas olishda pastki qovurg'alar kengayadi . Nafas olishda kiftlar va ko'krak qafasi ko'tarilmasligi kerak . Ashulachilarda nafas pastga – diafragmaga olinib , qorinning pastki qismi harakatda bo'ladi .

Nafas og'iz va burundan bir vaqtda olinadi . Nafas olishni o'rganish individual mashg'ulot jarayonida yaxshi natija beradi . Qo'llarni biqinga qo'ygan holda nafas olish kerak . Nafas olishni kuzatish uchun qo'llarni qovurg'alar bo'ylab pastga , yon tomonga yurita berish va bunda qorin bo'shlig'ining oldinroqqa chiqishini , qovurg'alarining yon tomonga kengayishini tuzatish mumkin . Nafasni rahbarning qo'l ishorasi bilan olib , bir tekis , shoshilmasdan chiqarishni ham o'rganish kerak .

Nafas asarning tempiga , jumalarning katta – kichikligiga qarab bir maromda tez , yengil , tekis , chuqur olinadi . Demak , nafas olishda gavgda , bo'yinning to'g'ri erkin holatda bo'lishiga , kiftlarning ko'tarilmasligiga va nafasning diafragmaga olinishiga erishish zarur .

Nafas tejam bilan sarflanishi kerak . Qo'shiq aytganda haddan tashqari ko'p nafas olish mumkin emas . Zanjir yoki ulama nafas olish usulu .

Zanjir usuli ayrim polifonik xor asarlarida yoki cho'zib turiladigan tonika va dominanta organ punktlarida uzoq muddatgacha nafas olish mumkin bo'lmagan paytlarda qo'llaniladi .

Ma'lumki , asarning boshidan oxirigacha bir nafas bilan qo'shiq aytib bo'lmaydi . Ko'p ovozli katta asarlar ijro etishda , kuy cho'zilib qolmasligi uchun xonandalar birdaniga bir vaqtda emas , balki navbatma – navbat nafas oladilar . Ya'ni , bir xonanda nafas olganda , yonidagi ikkinchi xonanda ijroni cho'zishni davom ettiradi . Bu xonanda nafasni rostlagach , u boshqalardan ajralmagan holda ijro partiyasiga qo'shiladi . Natijada kuy uzluksiz taralaveradi . Bu usul zanjir yoki ulama nafas olish deyiladi .

Yuqqori sinf o'quvchilariga ovoz apparatining tuzilishi, ish faoliyati, ovozni parvarish qilish usullari tushuntirilmog'i zarur . Yuqqori sinf o'quvchilarida ovoz etarlicha sayqal topmagan bo'ladi . Shuning uchun ovozni zo'riqtirmasdan , oqilona ishlatish , kuylash tartibiga qat'iy rioya qilish kerak . Bu tartib quyidagicha :

Mashg'ulot haftada ikki marotaba o'tkazilib boriladi va yigirma – o'ttiz daqiqadan ovozga dam berib turiladi . Mashg'ulotlar belgilangan vaqtda boshlanmog'i va o'quvchilarni mashg'ulot boshlanmasdan besh – o'n daqiqa avval o'z o'rinlarida bo'lishiga odatlantirmoq lozim .

Qatnashchilarni qo'shiq aytishga tayyorlash .

To'garak qatnashchilarini qo'shiq aytishga tayyorlash jarayonida qilinadigan ishlar ham ovoz sozlash tarbiyasi turkumiga kiradi . Ma'lumki , har bir mashg'ulot xonandalarning ovozlarini qo'shiq aytishga tayyorlash va ohang eshitish qobiliyatlarini ko'zda tutuvchi mashqlarni bajarishdan boshlanadi .

Bu mashqlar 10 – 15 daqiqa va undan ko'p davom etadi . Ovozni qo'shiq aytishga tayyorlash mashqlari ma'lum tartibda o'tkazilib , ovozni to'g'ri hosil qilishga , to'g'ri nafas olishga , yaxshi ansambl va jarangdorlikka erishiladi . Natijada xonandalarning ovoz imkoniyatlari mustahkamlanadi .

Xonandalarni qo'shiq aytishga tayyorlashning turli uslublari mavjud :

-mashqlarni butun guruh yoki alohida ovoz turlari bo'yicha kichik guruhlar bilan ishlash ;

-ma'lum unli tovushlar , bo'g'inlar va so'zlar yordamida ish olib borish ;

-turli tovush yo'nalishlarida (legato , nonlegato , stakkato , markato) uslubida ish olib borish ;

-turli dinamik (tovush kuchi) sur'at usullarida ish olib borish ;

-ayrim xalq qo'shiqlari bo'laklaridan foydalanib ishlash ;

-diapazonning ma'lum qismida (ma'lum registrda) kengaytirib ish olib borish .

Ovozni kuylashga tayyorlash mashqlari oddiydan murakkabgacha bo'lgan tartibda olib boriladi .

Qo'shiq o'rgatish yo'llari .

Suhbat . Qo'shiq o'rgatishda bir necha tashkiliy – amaliy usullar mavjud bo'lib , ulardan biri suhbatdir . Unda qo'shiqning badiiy mazmuni , muallifi va yaratilish tarixi , ilgari surilgan g'oya , qo'shiq kuyining xarakteri , ijtimoiy – siyosiy mohiyati hamda ahloqiy – estetik tarbiyaviy ahamiyati o'quvchilarga tushuntiriladi . Bunday suhbat to'garak rahbari tomonidan , qo'shiq o'rgatishdan avval yoki keyin amalga oshiriladi . Suhbat nihoyatda qisqa va qiziqarli bo'lishi kerak . Mashq jarayoni qo'shiq matnini yodlash bilan chegaralanmaydi . Muhimi , qo'shiqning ichki mazmunini har bir o'quvchining ongi va qalbiga chuqur singdirishi zarur .

Qo'shiq matnini o'rgatish .

Xor to'garagida qo'shiq matnini o'rgatish o'ziga xos jarayon bo'lib , avvalo qatnashchilari qo'shiqlar matni bilan tanishishlari , unda uchraydigan ba'zi lug'aviy so'zlar uchun maxsus daftar tutishlari maqsadga muvofiqdir . To'garak rahbari qo'shiq matnini avvaldan bir necha nushada tayyorlab , (agar to'garak ishtirokchilari musiqa savodidan ma'lumotli bo'lsa , jamoada saylangan kutubxonachi qo'shiq matnini yoki nota nusxalarini ko'paytirib , hamma qatnashchilarga tarqatadi) to'garak qatnashchilariga ulashadi . Buning qulay tomoni shindaki , matnni yodlash uchun mashg'ulotdan so'ng uyga olib

ketish mumkin . Bundan tashqari videoproektor orqali ham ekranda namoyish etsa bo`ladi .

To`garak rahbari matnda uchraydigan qiyin so`z va iboralarni doskaga yozib , uning ma`nosini va ahamiyatini tushuntirib beradi . Qo`shiq matnini o`zlashtirish darajasi uning oson yoki murakkabligiga bog`liq . Agar asar xalq qo`shiqlaridan iborat bo`lsa yoki shu kabi sodda , tushunarli tilda yozilgan bo`lsa , u holda bir yo`la asarning kuyi bilan o`rgatiladi . Agar murakkabroq bo`lsa , to`garak rahbari yordamida so`ng qatnashchilar o`zlari 3 – 4 marotaba aniq talaffuz bilan ta`sirli qilib o`qib chiqiladi . Matn mazmunini tushunib , to`g`ri his etilganda undagi talaffuz qilish qiyin bo`lgan so`zlarni bir necha marotaba takrorlab , so`ng kuyini o`rgatish mumkin .

Qo`shiq kuyini o`rgatish .

Qo`shiq o`rganishda avvalo rahbar va qatnashchilarning faollik darajasi ishning unumli bo`lishini ta`minlaydi . Bunda to`garak rahbari kuyni yaxshi o`zlashtirgan bo`lishi , uning badiiy mazmunini kuylash uchun murakkab bo`lgan jumla yoki taktlarning ahloqiy – estetik hamda tarbiyaviy ahamiyatini aniq belgilab olishi lozim .

To`garak rahbari kuyni biron bir cholg`uda ijro etadi voki qo`shiq qilib kuylab beradi . Qo`shiq kuyini taktlar , tarkiblar bo`yicha o`rgatib borish ancha yaxshi natija beradi . Chunki , xalq qo`shiqlari hamda xor asarlarida uchraydigan xususiy , vokal , matnli , ritmik , lad – tonal murakkabliklari turli qochirim va sayqallar , har bir jumla , talt , ba`zida har bir tovush ustida matonat bilan ishlashni talab etadi . Ikki yoki uch ovozli asarlarni o`rgatish esa har bir ovozlar ustida qayta – qayta ishlashni talab etadi . Bunda asosan ohangi qiyinroq bo`lgan ovoz ustida birinchi bo`lib va ko`proq ishlashga to`g`ri keladi .

Asosiy mavzu ohanggi tez quloqqa singgani uchun uning ustida ishlashni keyinroq boshlanadi . Xor jamoasiga ikki ovozli hamda uch ovozli asarlardan o`rgatish bir oz qiyinchilik tug`dirda , buning natijasida o`quvchilarda garmonik eshitish va kuylash qobiliyati rivojlanadi ,

hamohanglikni xis qila boradi , ularning estetik didini o`stiradi , bir – birini eshitib kuylash hamda hurmat qilishga o`rgatadi .

Badiiy ijro ustida ishlash .

Badiiy ijro ustida ishlash xor – vokal qatnashchilarining kasbiy mahoratini oshirishda yordam beruvchi tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda katta ahamiyatga ega . Asarning badiiy ijrosi , ya`ni unga sayqal berish , aniq intonatsion o`zlashtirish , tovush xarakteri , ravshan diktsiya , jummalarni aniqlash , umuman muallif g`oyasini ochib berish bilan bog`liq bo`lib ,bu ishning yakuni , uni yetarli darajada hissiyot bilan ijro etishdan iborat bo`lmog`i kerak .

To`garak qatnashchilarini tanlash.

Xor to`garagiga avvalo yaxshi ovozli, musiqiy qobiliyatli, qo`shiq san`atini jon dilidan sevadigan quyi va yuqori sinf o`quvchilari jalb etiladi. Ularni tanlashda varaqalar, suxbatlar va uchrashuvlar kabi turli usullardan foydalaniladi. Ularning bu janrga qiziqishlari, yosh xususiyatlari, ovoz imkoniyatlari, ta`sirchanligi, xalq qo`shiqlariga bo`lgan qiziqishi, kuylashga ishtiyoqi, o`zbek adabiyotini sevishi va tushunishi kabilar e`tiborga olinishi lozim. Togarak raxbari o`quvchilar ovozining o`ziga xos fiziologik xususiyatlarini to`g`ri his etishi zarur. Chunki, amalda yuqori sinf o`quvch`larida, o`gil bolalarda tanglayning tez o`sishi tufayli ba`zida ovozning me`yorida holati buzilib, kattalar ovoziga o`xshab, yo`g`onlashib, do`rillab qolishi tabiiy.

Bu davr ovoz shakllanishi uchun ancha mas`uliyatli bo`lganligi sababli mashg`ulotlar o`ta ehtiyotkorlik bilan olib borilishi kerak . O`quvchi imkoniyatiga ko`ra quyi ovozlarda kuylab turishi yoki vaqtincha kuylamasdan turishi ham mumkin . Bu sharoitda o`quvchilar vrachning nazoratida bo`lishi kerak .

Repertuar tanlashga doir ko`rsatmalar.

Yuqqori sinf o`quvchilarining xor-vokal qobiliyatini tarkib toptirishda repertuar tanlash muhim ahamiyatga ega . Bu o`rinda o`zbek xalq qo`shiqlari qo`l keladi . Repertuar yuksak g`oyaviy , badiiy jihatdan jamoaning yosh xususiyatlariga muvofiq kelishi , ijro uchun qulay , har tomonlama xarakteriga ko`ra xor qatnashchilariga tarbiyaviy vazifani o`tamog`i lozim . Yangi asarni to`g`arak rahbari tanlaydi . U albatta jamoa fikriga quloq solishi , ular bilan maslahatlashishi zarur . Biroq to`g`arak rahbari hal qiluvchi o`rinni egallaydi . U repertuarga mazmunli , g`oyaviy-estetik jihatdan yuksak qo`shiqlarni kiritishi maqsadga muvofiqdir .

Xor asarlaridan namunalar .

1. O`zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi . M. Burxonov musiqasi ;
A . Oripov she`ri .
2. O`zbekiston Vatanim manim . D. Omonullayeva . musiqasi;
J. Jabborov she`ri .
3. O`zbekistonim . L . Mujdaboyeva musiqasi ; Qambar Ota she`ri .
4. Vatan qo`shig`i . G` . Qodirov musiqasi ; B . Boyqobilov she`ri .
5. Rahmat ustozlar . G` . Qodirov musiqasi ; B. Boyqobilov she`ri .
6. Shu aziz vatan barchamizniki . D. Omonullayeva musiqasi .
M. Boboyev she`ri .
7. Go`zal diyor posbonlari . H . Rahimov musiqasi ;
N. Narzullayev she`ri .
8. Harbiylar qo`shig`i . A . Mallaboyev musiqasi ; I . Rahmon she`ri .
9. Chegarani saqlagaymiz . N . Norxo`jayev musiqasi ; P. Mo`min she`ri .
10. Oy vatanim . Sh . Yormatov musiqasi ; E . Qambarov she`ri .
11. Gullar manim kulganim . N . Norxo`jayev musiqasi ;
P . Mo`min she`ri .
12. Diyor madhi . N . Norxo`jayev musiqasi ; H . Rahmat she`ri .
13. Navro`zim – sho`xsozim . N. Norxo`jayev musiqasi ;
H . Rahmat she`ri .
14. Ona qo`llari . G` . Qodirov musiqasi ; T Ilhomov she`ri .

- 15 . O`zbekiston . Sh . Ramazonov musiqasi ; A . Isroilov she`ri .
- 16 . Alyor ey diyor . A . Nazarov musiqasi ; Sh . Qurbon she`ri .
- 17 . Lapar . M . Leviev musiqasi . Uyg`un she`ri .
- 18 . Ulug` Vatan . M . Nasimov musiqasi . T . Sobirov .
- 19 . Terimchi qizlar taronasi . Sh . Ramazonov musiqasi ;
A . Isroilov she`ri .
- 20 . Yoshligim . O`zbek xalq qo`shog`i . B . Umidjonov qayta ishlagan .
- 21 . Go`zal Farg`ona . A . Muhammedov musiqasi ; H . G`ulom she`ri .
- 22 . Vatan haqida qo`shiq . S . Boboyev musiqasi ; T . Ma`rufiy she`ri .
- 23 . Yoshlik qo`shig`i . M . Ashrafiy musiqasi ; K . Yashin she`ri .
- 24 . Alla . A . Muhammedov musiqasi ; Z . Obidov she`ri .
- 25 . Yali – yali . M . Leviyev musiqasi ; T . To`la she`ri .
- 26 . Chimboy . Qoraqalpoq xalq qo`shig`i . B . Umidjonov
qayta ishlagan .
- 27 . Go`zal . M . Nasimov musiqasi ; H . Sharipov she`ri .
- 28 . Og`o dorom . Xorazm xalq qo`shig`i . B . Umidjonov
qayta ishlagan .
- 29 . Ililla yor . O`zbek xalq qo`shig`i . B . Umidjonov qayta ishlagan .
- 30 . Chamanda gul . O`zbek xalq qo`shig`i . B . Umidjonov
qayta ishlagan .
- 31 . Chilonzor . F . Nazarov musiqasi ; P ; Mo`min she`ri .
- 32 . Bog`imizga marhamat . G` . Qodirov musiqasi ; T . Ilhom she`ri .
- 33 . Aziz ustozlar . S . Boboyev musiqasi ; A . Rahmat she`ri .

Nafas olish va ovoz sozlash mashqlari .

To`g`ri nafas olish qo`shiq kuylashda katta ahamiyatga ega . Tovushning kuchi , go`zalligi , davomiyligi nafasga bog`liqdir . Nafas erkin , bir tekis , tabiiy bo`lishi kerak . Ko`pincha o`quvchilar qanday nafas olish kerakligini darhol tushunib yetmaydilar . Ularning ko`pchiligi nafas olishda yelkalarini ko`taradilar . Bunday nafas qichqirib qo`shiq aytishga qo`l keladi . To`garak rahbari qorin mushaklari , ko`krak qafasining quyi qismlari , nafas

olishda ishlashini tushuntirishi lozim , so`ng o`zining shaxsiy namunasida ovozning to`g`ri va noto`g`ri nafas olishida jaranglashidagi farqni ko`rsatishi kerak . Qo`shiq aytish jarayonida nafas qisqa va dinamik bo`lishi kerak .

To`g`rak faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish .

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik , o`zgarishlar kiritish bo`lib , uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to`liq foydalaniladi .

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo`lib fikrlash deb yuritiladi , ta`sir etishning usullari bo`lib , ta`lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi . Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki , ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatishi orqali amalga oshiriladi . Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib , ularga quyidagilar kiradi :

- O`quvchi – talabaning dars davomida befarq bo`lmaslikka , mustaqil fikrlash , ijod etish va izlanishga majbur etish ;
- O`quvchi – talabalarni o`quv jarayonida bilimga bo`lgan qiziqishini doimiy ravishda bo`lishini ta`minlash ;
- Oquvchi – talabaning bilimga bo`lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish ;
- Pedagog va o`quvchi – talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi .

Innovatsion texnologiyaning eng asosiy negizi – bu o`qituvchi va o`quvchi – talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari tanlangan texnologiya yoki interfaol metodning tanlanishiga bog`liqdir .

« Bumerang », « Elpig`ich », « Tarmoqlar », « Loyiha », « Blitz-o`yini », « Men tashkilotchi », « 3x4 » texnologiyasi , « Intervyu », « Labirint », « Charxpalak », « Muloqot » treninglari innovatsion texnologiyalardandir .

« Muloqot » treningi .

Ushbu trening o`quvchilarning dars jarayonida fikrlashga, o`z fikrlarini erkin bayon eta olishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo`lib, bunday mashg`ulot o`quvchilarni kichik guruhlariga bo`lgan holda o`tkaziladi.

Maqsadi. Tanlangan mavzu, muammo asosida o`quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo`lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to`g`ri xulosa chiqarishlariga yordam berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratishdan iborat.

« Tarmoqlar » metodi (klaster) .

Fikrlarning tarmoqlanishi – o`quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o`rganishlariga yordam berib, o`quvchilarni mavzuga taaluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog`lagan holda tarmoqlashlariga o`rgatadi.

Bu metod biron mavzuni chuqur o`rganishdan avval o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishi uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek o`tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o`zlashtirish, umumlashtirish hamda o`quvchilarni shu mavzuni ifodalashga undaydi.

Bu kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashg`ulotlarni olib borish to`garak rahbari va qatnashchilari uchun juda samarali bo`lib, bunday texnologiyalar mashg`ulotning yanada qiziqarli va faol bo`lishiga, qatnashchilarning erkin va to`g`ri fikrlashiga o`rgatadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda to'garaklarga o'quvchilarni qiziqishlarini tobora ortirib borish uchun avvalo davr talablariga mos alohida jihezlangan maxsus xona, mashg'ulotlarga kerakli asbob-jixozlar, kerakli adabiyotlar, to'garak a'zolariga maxsus kiyimbosh tiktirish, to'garakda erishgan yutuqlarini ota-onalariga namoyish etish, o'zlari haqida chop etilgan maqolalarni matbuotda o'qish to'garak a'zolarining to'garaklarga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

To'garak o'quvchilarining musiqaviy –estetik tarbiyasida oilaning o'rnini juda muhimdir . Chunki , o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini , san'atga bo'lgan qiziqish va ijodiy munosabatlarini , badiiy faoliyatga ishtiyoqlarini hamda madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda ko'p narsa ota-onalarning san'at haqidagi tushunchalari va unga nisbatan bo'lgan munosabatlariga bog'liqdir . To'garak faoliyatlari mashg'ulotlarini tashkil etishda « musiqa – bolalar - ota-onalar » muammosi o'tkir namoyon bo'ladi .

Maktab bilan oilaning hamkorligidagi harakati ota-onalarini musiqaviy ma'rifiy yo'naltirishga va uy sharoitida bolalar musiqa tarbiyasini tashkil etishga qaratilgan maxsus tushuntirish suhbatlarini o'tkazishni talab qiladi . Musiqa asarlari bilan tanishtirish uchun tavsiya qilingan repertuarlar , musiqali ertaklar , O'zbek va boshqa xalqlar klassiklari , xalq ijodiyoti namunalari , turli magnit hamda disk yozuvlari , hafta davomida olinadigan ommaviy axborot vositalarida bo'ladigan qiziqarli musiqali ko'rsatuvlar va eshittirishlar ota-onalar uchun foydali axborot bo'lib xizmat qiladi .

Umumta'lim maktabi o'quvchilarining bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish ayniqsa , uni musiqaviy mashg'ulot , o'yin , to'garak va ommaviy tarbiyaviy ishlarga jalb etish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Bunday musiqiy faoliyatlarda o'quvchilar turli musiqa asarlarini tinglaydilar , kuylaydilar , ularga hamohang ravishda xatti-harakatlarni bajaradilar . Bir so'z bilan aytganda , musiqa asarlarida bayon etiladigan voqea va hodisalarning mohiyatini rang-barang tovushlar orqali idrok qiladilar . Bu tarbiyaviy tadbirlar ta'sirida ularning musiqiy

qobiliyatlari, ritmik tuyg`usi , tovushlarning serjilo harakatlarini his qilish , kuylash iqtidori, tahlil qilish malakasi va boshqa xususiyatlar shakllanib boradi .

O`quvchilarning bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazish va ularning ijtimoiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirish , ularning ruhiy kamolotini yuksaltirishda musiqiy mashg`ulotlarning , jumladan, ijodiy to`garaklar : xor, orkestr, folklor, estrada, raqs , xalq vokal ansambllari , musiqaviy suhbat , viktorina , maruza , munozara , yosh musiqasevarlar klubi va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda tashkil etishgan to`garakda muayyan maqsadni ko`zlab ish olib borilishi, birinchi sinfdan boshlab qo`shiq o`rgatishni yaxshi yo`lga qo`yilishi mazkur to`garakda o`quvchilarning yoshlariga qarab guruhlar tuzishga amal qilindi. Bunda quyidagicha yosh xususiyatlarga qarab amal qilishni lozim topdik.

- a) Kichik guruh 7-9 yosh ya'ni 1-3 sinflar.
- b) O`rta guruh 10-12 yosh ya'ni 4-6 sinflar.
- v) Katta guruh 14-16 yosh ya'ni 7-9 sinflar.

Shuni ham aytish kerakki, xor, ansambl, ashula yoki raqsga tushishda bolalarning hohishi bor yoki yo`qligiga qaramasdan, musiqiy qobiliyatini tekshirib qabul qilish yaxshi natija beradi.

Nafosat tarbiyasining vositalardan eng muhimi san`atdir . San`atning barcha tur va janrlari o`ziga xos ta`sir kuchiga ega . Yosh o`sa borgani sayin bolada san`atning u yoki bu turiga qiziqish o`zgarib turadi . San`atning eng ta`sirchan turlaridan biri xilma-xil musiqadir . Bola hali yozish , o`qish va chizishni bilmagan paytda ham musiqaning sehrli to`lqinini qabul qilishi , ulardan oziqlanishi mumkin . Musiqaning ilk ta`siri ona allasi bilan bog`liq . Ona allasi mayin , jozibali , shirador , ta`sirchan bo`lgani uchun ham bola undan orom olib uyquga ketadi . Musiqa bolaning eshitish qobiliyatini yaxshilaydi , uning ruhiyatiga yumshoqlik , fe`l – atvoriga muloyimlik bag`ishlaydi . Haqiqiy musiqa asarlari ta`sirida ulg`aygan bola o`rtoqlari orasida ajralib turadi .

« Barchamizga ayonki , kuy-qo`shiqqa , san`atga muhabbat , musiqa madaniyati xalqimizda bolalikdan boshlab , oila sharoitida shakllanadi . Uyida

dutor , doira yoki boshqa cholg`u asbobi bo`lmagan , musiqaning hayotbaxsh ta'sirini o`z hayotida sezmasdan yashaydigan odamni bizning yurtimizda topish qiyin , desak , mubolag`a bo`lmaydi .

Eng muhimi , bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko`proq va kuchliroq ta'sir ko`rsatmoqda , »- deydi prezidentimiz Islom Karimov o`zining « Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch » asarida .

Yana shuni takidlaydilarki , -« O`sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish , yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga , ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada san'ati namunalaridan keng bahramand bo`lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish , musiqiy ta'limni yanada rivojlantirish masalalari o`ta muhim ahamiyat kasb etadi . »

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz , Prezidentimiz rahbarligida madaniyat va san'at rivojiga alohida e'tibor qaratmoqda . Chunki millatning o'tmish va kelajak oldidagi mas'uliyati uning ma'naviyatiga alohida e'tibor berishni taqozo etadi . Asosiy maqsad- o'tmish madaniy , ma'naviy merosimizni chuqur o`rganish , uni keng ommalashtirish , shu qadriyatlar vositasida komil insonlarni tarbiyalab , voyaga yetkazish , pirovardida ularni kelajak avlodlarga bus-butun yetkazishdan iboratdir .

Bu ma'naviy qadriyatlarni kelajak avlodga yetkazishda « Musiqa madaniyati » darslari bilan bir qatorda musiqiy to`garaklarning ham o`rni juda kattadir . Bu to`garaklar o`quvchilarning bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazishda ahamiyatlidir . Bundan tashqari , to`garak qatnashchilarining yoshi chegaralanmagan , asosiysi erkin hamda ihtiyoriy ravishda faoliyat olib boradilar .

Xor to'garagining ishini rejalashtirish .

.R.	Mashg'ulot kuni	O'quv- tarbiyaviy ishlar.	Asarlar ustida ishlash .	Tashkiliy ishlar .	Ayrim belgilar .
1					
2					
3					
4					
5					
6					
7					
8					

O'rganiladigan asarlar ro'yxati .

. R.	Asar nomi .	Asar mualliflari haqida ma'lumot .	O'rgati shga ajratilgan vaqt .	Bi rinchi ijro vaqti .	A yrim belgilar.

T. R	Ishtirokchilarni ng Ismi-familiyasi .	Ovozi	Sinfi	Oy-kunlar.	Mashg'ulo t Mazmuni .	Soatla r hisobi	Ayrim belgilar .	to'g . rah. Ishi
---------	--	-------	-------	------------	-----------------------------	-----------------------	------------------------	---------------------------

1								
2								
3								
4								
5								
6								
7								
8								

Davomat va mashgʻulotlarni hisobga olish jadvali .

Berilgan tadbirlarni hisobga olish

T.R.	Tadbir oʻtkazilgan vaqt	Tadbir oʻtkazilgan joy	Tadbir dasturi	Qatnashchilar soni	Sezilgan kamchiliklar	Umumiy fikrlar	Izoh
1							
2							
3							
4							
5							
6							
7							
8							

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I. A. Karimov . Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch . Toshkent . 2008 yil. 143-145-betlar .
2. I. A. Karimov . O`zbekiston buyuk kelajak sari . Toshkent . : « O`zbekiston » . 1998-yil . 311-bet.
3. I. A. Karimov . Barkamol avlod orzusi . Toshkent . : « O`zbekiston milliy ensiklopediyasi » davlat nashriyoti . 2000-yil . 9-bet .
4. I. A. Karimov . Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori . Toshkent . 1997-yil . 42- bet .
5. X. Bobomirzayev . Navoiy D.P.I. dotsenti . Milliy qadriyatlar vositasida o`zlikni anglash . Xalq ta'limi jurnali 1-son . 2010-yil . 95-96-betlar .
6. A. Zunnunov , O` . Tolipov. Milliy qadriyatlar asosida o`quvchi shaxsini shakllantirish . « Sharq » nashriyoti . Toshkent – 2006.
7. H. Nurmatov , N . Yo`ldasheva . O`zbek xalq musiqa ijodi . Toshkent – 2007 yil .
8. R. Tursunov . Xalq musiqa ijodiyoti va adabiyoti . Toshkent – 2002 yil .
9. E. Umarov , R. Karimov . Estetika asoslari . Toshkent – 2008 yil
10. Sh. Usmonova . Innovatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llash . Andijon – 2007 yil .
11. I. Ro`ziyev . Xorshinoslik . Toshkent – 1989 yil .
12. T. Yunusov , T. Abdullayeva . « O`quv kuni uzaytirilgan sinf va guruh ishlarini tashkil etish » . Toshkent -1986 yil .
13. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O`zbekiston, 2000. -112 b.
14. “Ta'limda yangi pedagogik” texnologiyalar: muammolar, yechimlar”. Ilmiy – amaliy konferensiya materiallari T., O`z PFITI, 1999.
15. J.G'.Yo`ldoshev, S.A.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari”. T. “O`qituvchi”, 2004
16. N.Saidamedov. “Pedagogik texnologiya”. T., 2002.
17. R.Ishmuxammedov. “Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish”. T., 2004
18. K.Turg'unboyev, B.Vohobjonov va b.q “Pedagogik texnologiya asoslari”. Andijon, 2002.
19. B.A.Farberman, R.G.Musina. “Oliy o`quv yurtlarida o`qitishning zamonaviy usullari”. T.,2002
20. O.Safarov, K.Ochilov. «Boychechak». T., G`ulomov nashriyoti, 1984 y.
21. R.Tursunov. Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubi T., 2002 y.
22. T.Maxmudov. Mustaqillik va ma'naviyat T., «Sharq», 2001 y.

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
Bob I. Musiqaviy – estetik tarbiyaning psixologik asoslari.....	7
1.1. Sinifdan tashqari musiqa tarbiyasining maqsadi va vazifasi.....	13
1.2.To`garak tashkil etishda o`quvchilar oilasi bilan o`zaro aloqa.....	19
Bob.11. Umumta'lim maktablarida musiqiy to`garaklarni tashkil etish metodlari.....	27
2.1. Xonandalik to'garagi rahbarining tashkilotchilik va uslubiy etukligi.....	34
2.2. Xor to`garagi tashkil etish va uning ahamiyati.....	46
Xulosa.....	57
Foydalanilgan adabiyotlar.....	62
Ilova.....	64